

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI
“MENEJMENT VA MARKETING ” KAFEDRASI

ISLAMOV JAMSHID SHOALIMOVICH

“KORHONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVASION
JARAYONLARNING O'RNI”

5340200 -“ Menejment”- yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI
«HIMOYAGA RUHSAT ETILDI»
«Menejment va marketing» kafedrası mudiri
i.f.d. prof. F. Nazarova

« _____ » _____ 2013y.

Ilmiy rahbar: _____ i.f.n. dots. G.Hamdámová

TOSHKENT 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLARNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Innovatsiyaning mohiyati va uning asosiy tushunchalari	6
1.2. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari va uning menejmenti ..	11
1.3. Korxonalarda innovatsion loyihalarni baholash tartibi va tanlash usullari	13
II BOB. «SIRG’ALI DEHQON BOZORI» OAJ DA INNOVATSION FAOLIYATNING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	22
2.1. «Sirg’ali dehqon bozori» OAJ faoliyati tavsifi va tahlili	22
2.2. Innovatsion texnologiyalarni qo’llash sharoitida korxonaning zamonaviy holati tahlili	29
III BOB. KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	37
3.1. Korxonalarni boshqarishda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish yo’llari	37
3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion siyosat va uning shakllanish xususiyatlari	43
3.3. Korxonada faoliyatida innovatsiyalarni boshqarishning xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	50
XULOSA	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	61

KIRISH

BMI mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari davom etar ekan, uning barcha bo'g'inlarida albatta o'zgarishlar sodir bo'lishi va yangi iqtisodiyot barpo bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalashni juda keng va atroflicha targ'ib etib, "iqtisodiyotimizda chuqur islohotlarni davom ettirish; yurtimizga zamonaviy texnologiyalarni olib kelib, ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini tezlashtirish siyosatini izchil amalga oshirish lozim"¹, deb ta'kidlaydi. Respublikamiz Prezidenti ushbu fikrlaridan yaqqol ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad ishlab chiqarishni yangilash, modernizatsiyalash orqali butunlay "yangi iqtisodiyotni", ya'ni eng zamonaviy raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishdan iboratdir.

"Yangi iqtisodiyot" iborasini keng va turlicha talqin qilish mumkin. Xorijlik iqtisodchi olim R.Alkali o'zining "Yangi iqtisodiyot: genezis, evolyutsiya samara" nomli asarida: "...bu mehnat samaradorligining oshishiga ta'sir qiluvchi innovatsiyalar va biznes yuritishning yangi usullarini intensiv joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotdir"² deb hisoblaydi. Yuqoridagi olim ta'rifidan ham ko'rinib turibdiki, zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy xususiyatlarini ishlab chiqarishni yangilash, modernizatsiyalash belgilab bermoqda. Buning natijasida: iqtisodiy faoliyatning global elektron muhiti shakllantirilmoqda; biznesni tashkil etishning yangi tarmoqli shakllari yaratilmoqda va masofaviy mehnat munosabatlari keng tarqalmoqda va boshqalar. Ushbu holatlarning barchasi bizning ham zamonaviy iqtisodiyotimizda amal qilib kelmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni hayotga tadbik etishda, axolinig ijtimoiy turmush tarzini yanada ko'tarishda, qolaversa xalqning farovon xayoti uchun bevosita o'z

¹ I.A.Karimov. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi .T.:-"O'zbekiston" - 2012 y.34-35 b.

² Roger Alkaly/ The new economy: what is it, how it happens, and why it is likely to last / Roger Alkaly. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2003. P.20.

ta'sirini ma'lum bir ma'noda o'tkazishda, siyosiy-ijtimoiy nuqtai nazardan ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi omil sifatida hayotiy siklda bevosita ishtirok etuvchi korxonatashkilotlarning o'rni bozor munosabatlari davrida muhim ahamiyatni kasb etadi.

Yurtboshimiz 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturi ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida qilgan ma'ruzasida "Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli, deb o'ylayman. Ma'ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan"³ deb aytib o'tdi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida korxonalarda yangicha ishlab chiqarishni tashkil qilish, qo'shimcha xizmat turlarini taklif etish va mavjud mahsulot va xizmat turlarining sifatini oshirish asosida korxonalarni boshqarishni innovatsion jihatdan rivojlantirish zaruriyati bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

BMI ning obykti. Tadqiqot obykti sifatida «Sirg'ali dehqon bozori» OAJ ning boshqaruv faoliyatida innovatsion jarayonlarni qo'llash amaliyoti tanlangan.

BMI ning predmeti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, korxonalarni boshqarishda vujudga keladigan tashkiliy - iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

³ Karimov I.A. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2013 yil. www.press-service.uz

BMI ning maqsadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar faoliyatini boshqarishda innovatsion faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. BMI maqsadidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy vazifalar qo'yildi:

- korxonalar faoliyatini boshqarishda innovatsion faoliyatning mohiyatini ochib berish;
- innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari va uning menejmentini ko'rib chiqish;
- korxonalarda innovatsion loyihalarni baholash tartibi va tanlash usullarini yoritib berish;
- innovatsion texnologiyalarni qo'llash sharoitida korxonaning zamonaviy holatini tahlil qilish;
- korxonalar faoliyatini boshqarishda innovatsion jarayonlarni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Innovatsion faoliyat xususiyatlari va innovatsion jarayonla asosida korxonalarni rivojlantirish hamda istiqbollarning tadqiq etish quyidagi xorijlik iqtisodchi olimlardan Yu.P.Morozov, K. I.Pletnev, S.V.Valdaytsev, V. Yakovets, D.I.Kokurin, I. Shumpeter, B.3. Milner, P.I.Ratanin, D. Saxal, B.Santo, V.M.Anshin ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu muammoning alohida jihatlarini O'zbekiston misolida D.V.Trostyanskiy, A.F.Rasulov, D.N.Raximova, A.X.Hikmatov, B.Yu.Xodiev, M.P.Narziqulova, M.L. Tursunxodjaev, I.I.Iskanderov, I.S.Tuxliev, V.M.Shepelev, A.M.Qodirov, Sh.Zaynitdinov ishlarida ko'rib chiqilgan.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. BMI matni betni tashkil etib, unda ___ ta jadval, ___ ta rasm, ___ ta diagramma keltirilgan.

I BOB. KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Innovatsiyaning mohiyati va uning asosiy tushunchalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishning bosqichma-bosqich o'tish davrida davlatning ilmiy texnika siyosati mohiyati shuki, u respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan, iqtisodiyot tarmog'larini tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy va texnologik tadqiqotlarga ko'maklashishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida "O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"⁴ deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat XXI asr boshida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ilmiy-texnik rivojlanish darajasi va innovatsion muhit (ilm-fan, ta'lim, yangi texnologiyalarning mahalliy va jahon bozorlari) barqaror iqtisodiy o'sishga asos bo'lishi mumkin ekan. Yurtboshimiz mamlakatimizdagi innovatsion o'zgarishlarga e'tibor qilib, "...ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir"⁵ deb, respublikamizda bugungi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llari haqida to'xtalib,

⁴ I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" – T.: O'zbekiston, 1997 y., 260-b.

⁵ Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". –T.: O'zbekiston, 2009. -14-b.

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini samarali faoliyat yuritilishi zarurligini ta'kidladi.

Innovatsiya bu umuman olganda O'zbekiston Respublikasining ilmiy jamiyati, hamda ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sektori uchun bosqichma-bosqich o'rganib kelinayotgan tushunchadir. Ma'lumki mustamlaka davrlarda bizning davlat mustaqqil ravishda amaliyotda yangiliklarni tadbiq etishga to'laqonli haqli emas edi. Mustaqillik O'zbek xalqi uchun dunyoni ochish bilan birgalikda bir qancha imkoniyatlarni berdi. Endilikda qa'tiyan iqtisodiy asoslangan innovatsion strategiyalarni ishlab chiqarishlarda, xizmat ko'rsatishlarda yohud ho'jalikning boshqa bir jabxasiga tadbiq etishimiz mumkin.

Avvalambor innovatsion faoliyat xususida so'z boshlashdan oldin innovatsiya to'g'risida tushuncha berib o'tamiz. "Innovatsiya", «Innovatsion faoliyat», «Innovatsion yechim» kabi terminlar O'zbekiston iqtisodiy o'tish davrining birinchi bosqichlaridayoq aktiv qo'llanila boshlandi. Umuman "Innovatsiya" tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadida, uning mohiyati borasida keltirib o'tilgan fikrlar va nuqtai nazarlar bilan tanishib o'tamiz. Adabiyotlarda bu borada turli xil qarashlar mavjud.

Mazmuni, mohiyati yoki ma'lum bir mavjud ichki-tashqi strukturaga ta'sir etish alomatlariga ko'ra innovatsiyani quyidagicha turkumlash mumkin:

- Texnik innovatsiya
- Iqtisodiy innovatsiya
- Tashkiliy innovatsiya
- Boshqaruv innovatsiyasi va hokazo.


Innovatsiyani ilmiy izlanishlarda, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarda xalqaro standartlarga asosan qo'llanilishi, bu bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkiliy strukturaning to'g'ri tashkil etilganligidan dalolat beradi. Xalqaro strandartlarga asosan innovatsiya orqali, umumun inovatsion faoliyat orqali qo'lga kiritilgan yangi bir turdagi mahsulotni, xizmatni yoki ularni takomillashtirilgan ko'rinishda bozorga kiritilishi, shu bilan birgalikda yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga tadbiq etilishi bu

ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuvni shakillantirib beradi. Shu asosida innovatsiya, innovatsion faoliyatning yorqin natijasi sifatida e'tirof etiladi. Agar o'z o'rnida turli xil mulohozalar asosida fikr bildiradigan bo'lsak, "Innovatsiya"ning spetsifik xususiyati sifatida uning "o'zgaruvchanligini" ya'ni davr talabiga monand o'zgaruvchan qobiliyatga egaligini, innovatsion faoliyatning bosh vazifasi sifatida "o'zgaruvchanlik" funksiyasini qayd etish mumkin. Bu borada Avstriyalik mashhur olim I.Shumpeter o'zgaruvchanlikni 5 turga bo'lib o'rgangan:⁶

- Ishlab chiqarishga yangi texnologik jarayonlar hamda yangi texnika va texnologiyalar asosida o'zgartirish kiritish;
- Mahsulotlarni takomillashgan ko'rinishda amaliyotga tadbiq etish;
- Xom-ashyo bazasiga o'zgartirish kiritish;
- Tashkilotning ishlab chiqarish taktikasiga va moddiy-texnik ta'minotiga o'zgartirish kiritish.
- Bozor ko'lamini kengaytirish.

Bir qator manbalarda innovatsiya bir jarayon sifatida ko'rib chiqilgan va tan olinganki, "yangiliklar" vaqt o'tgan sari rivojlanib boradi. Va bu rivojlanishni innovatsiyaning dinamik va statik aspektlarga monand xususiyatlanishi sifatida ko'rib o'tilgan. Ma'lumki innovatsion jarayonning bir bosqichdan keyingi bir bosqichiga o'tishda vaqt resursi, energiya resursi, pul resursi va boshqa zaruriy resurslarga bo'lgan harajatlar talab etiladi. Bozor sharoitining iqtisodiy munosabatlar tizimida talab va taklif omili, tovar oldi-sotti jarayoni va ularga bo'lgan narxning proporsional yoki noproportsional tarzida mavjudlik omili innovatsion faoliyatning komponentlari sifatida qayd etiladi. Shu o'rinda innovatsion faoliyat tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, umuman bu faoliyatning strukturaviy asosini yangiliklar bozori, kapital bozori va sof raqobat bozori tashkil etadi (1-rasm).

⁶ Сантойлайнен Т.,Боулайнен Е. Управление по результатам.М.: Прогресс. 2004 г. 123 стр.



Rasm 1. - Innovatsion faoliyat sxemasi⁷

Innovatsiya zamirida keng qamrovda oqilona yangiliklardan foydalanish tushuniladi (xoh u yangi texnologiyalar ko'rinishida bo'lsin, xoh xizmat yoki mahsulot ko'rinishida, xoh tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy yechimlarni o'zida qamrab olgan moliyaviy, tijoriy, ma'muriy xarakterdagi omil ko'rinishida bo'lsin). G'oyalarni vujudga kelish, ularni shakllanish va amaliyotda tadbiiq etilishigacha bo'lgan davrini innovatsiyaning hayoti sikl deb atash mumkin. Innovatsiyaning hayotiy siklini innovatsion jarayonlar tashkil etadi. "Innovatsiya" va "innovatsion jarayon" atamaları bir biriga juda yaqin lekin bir xil tushunchalar emas. Innovatsion jarayon deganda yangiliklarni shakllantirish, o'zlashtirish va targ'ib etishni tushunish mumkin. Innovatsiya tashkilotchilari (novatorlar) asoslangan kriteriyalarga binoan ish yuritadilarki, ijobiy natijalar sifatida iqtisodiy samaradorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning strategiyasi, asosan sof raqobat muhitida aniq bir jabhada yangilik yaratgan holda raqobatchilardan o'tib ketishga qaratilgan. Ilmiy-texnik ishlab chiqilmalar va yangiliklar, ilmiy ishlab chiqarish siklining oraliq natijasi ko'rinishida namoyon bo'ladi va amaliy qabul qilish mobaynida so'nggi natija sifatida ilmiy-texnik innovatsiyani o'zida akslantiradi. Ilmiy-texnik ishlab chiqilmalar va kashfiyotlar, amaliyotda qo'llanishi nazarda tutilagan ilmlarga ilova bo'lib xizmat qiladi,

⁷ Сантойлайнен Т., Боулайнен Е. Управление по результатам. М.: Прогресс. 2004 г. 123 стр.

ilmiy-texnik innovatsiya esa (ITI) bu ite'molchilarning aniq bir talabini qondirish uchun ishlab chiqarish jarayoniga kiritilgan yangi g'oya-bilimlarga, kashfiyotlarga moddiy tus berishdir.

Ummuman olganda inovatsiyalar quydagicha tasniflanadi:

Innovatsiyalar texnologik parametrlarga bog'liq holda:

- mahsulotli innovatsiyalarga (ya'ni bu inovatsiyalar, yangi xom ashyolarni, yangi yarim tayyor mahsulotlarni va printsiplial jihatdan yangi mahsulotlarni qabul qilishni o'zida mujassamlashtiradi),

- jarayonli innovatsiyalarga (ya'ni bu tur innovatsiyaning mohiyati shuki, u ishlab chiqarish jarayoniga yangi usullarni va texnologiyalarni tadbic etishni nazarda tutadi.O'z o'rnida jarayonli innovatsiya tashkilotning yangi tashkiliy strukturasi tashkil etishga bevosita ishtirok etishi mumkin) bo'linadi;

- yangiliklarning turi buyicha innovatsiyalar:

- jahon yangiliklarga (ya'ni jahonda mavjud tarmoqlarda sodir bo'layotgan yangiliklar),

- mamalakat yangiliklari (ya'ni mamlakat tassarufidagi tarmoqlarda yuz berayotgan o'zgarishlar va yangiliklar);

- tizimda joylashuv o'rniga ko'ra (tashkilotlarda, firmalarda).

Tashkilotlarga kirishdagi innovatsiyalar, ya'ni bunda xom – ashyolarga, materiallarga, ma'lumotlar va mashina uskunalarga bo'lgan tanlovda o'zgarishlarni tushunish mumkin. Tashkilotlardan chiqishdagi innovatsiyalar, ya'ni bunda to'lov berilgan buyumlar, xizmatlar, texnologiyalar va hokazolar tushuniladi. Tashkilotning tizimli strukturasiidagi innovatsiyalar, ya'ni boshqaruv, ishlab chiqarish va texnologik strukturadagi innovatsiyalar.

O'zgarishlar qay darajada ekanligiga ko'ra innovatsiyalarni quydagilarga bo'lish mumkin: radikal, modifikatsion (xususuiy), yaxshilanib boruvchi innovatsiyalar. Tashkilotlarning faoliyat chegarasini hisobga olgan holda innovatsiyalarnig tasniflanishi: texnologik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, savdo innovatsiyasi, ijtimoiy, boshqaruv sohasidagi innovatsiyalar. Ana shunday bir-biri bilan uzviy bog'langan chora tadbirlar ayni vaqtda jahon moliyaviy

inqirozidan imkon qadar tez chiqish va uning oqibatlarini yengillashtirishga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash modelining samarali amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

1.2. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari va uning menejmenti

O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jahon bozorida milliy mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning erkin savdosini tashkil etish va keskin raqobat sharoitida mamlakatlararo tovar ayriboshlash sohasida o'z o'rnini topishga zamin yaratadi. Buning uchun mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyatini ko'tarish, birinchi navbatda, iqtisodiyotining barcha tarmoqlari, jumladan, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarida texnik darajani tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ilmiy texnika taraqqiyoti mahsulotlarini amaliyotga joriy etishni jadallashtirishga katta e'tibor qaratish lozim. Fan va texnikani zamon talablariga mos tarzda rivojlantirish borasida innovatsion jarayonlarning amalga oshirilishiga, yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etilishiga bevosita ta'sir etuvchi real omillarni aniqlash juda muhim hisoblanadi. Bunday omillar ko'p qirrali bo'lib, ularga:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish; yangi g'oya va innovatsion loyihalarning soha yoki alohida olingan tarmoq yoki tashkilot maqsadlariga mos kelishini ta'minlash;
- loyihalarni tanlash, ularni ekspertiza qilish va baholashda xolis va samarali tizimini joriy etish;
- samarali boshqaruv va nazorat me'yorlarini ishlab chiqish, ijodiy g'oyalar manbaini yaratish;
- tashkilotlarning yangiliklarga nisbatan moyilligini rag'batlantirish;
- ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlarini kafolatlash bilan bir qatorda ularning javobgarligini oshirish va boshqalar kiradi.

Korxonalar boshqaruv faoliyatida innovatsion jarayonlarni tadqiqini innovatsion so'zining ma'nosi ingliz tilidagi innovatsion so'zidan olingan bo'lib yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildirishini eslatib o'tamiz.

G'oyalarni vujudga kelish, ularni shakllanish va amaliyotda tadbiq etilishigacha bo'lgan davrini innovatsiyaning hayoti sikl deb atash mumkin. Innovatsiyaning hayotiy siklini innovatsion jarayonlar tashkil etadi. "Innovatsiya" va "innovatsion jarayon" atamalari bir biriga juda yaqin lekin bir xil tushunchalar emas. Innovatsion jarayon deganda yangiliklarni shakllantirish, o'zlashtirish va targ'ib etishni tushunish mumkin. Innovatsiya tashkilotchilari (novatorlar) asoslangan kriteriyalarga binoan ish yuritishadilarki, ijobiy natijalar sifatida iqtisodiy samaradorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- kelib tushayotgan fikrlarni tizimlashtirish; g'oyani aniqlanishi va yangi mahsulotni g'oyasini ishlab chiqish;
- yangi mahsulotni iqtisodiy samaradorligini taxlili, marketing dasturini ishlab chiqish;
- yangi mahsulotni yaratilishi; bozorda yangi mahsulot sotilish ehtimolligi haqida davriy test o'tkazish;
- marketing dasturiga asoslangan yangi mahsulotni ishlab chiqarishga kiritish haqida qaror qobul qilish.

Innovatsiya jarayonini boshqarish ob'ekti texnik siyosatni ishlab chiqish uchun yuqori darajada maxsuslashtirilgan bo'limlar, ya'ni uyushmalarni, qo'mitalarni yoki ishchi guruhini tuzishni taxmin qiladi:

- innovatsion faoliyatni nazorat qilish uchun yangi mahsulotni bo'limlarini va markazlashgan xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- yangi mahsulot yaratish uchun maqsadli loyiha gurhlarini yoki markazlarini belgilash;
- ishlab chiqarish bo'limlarida mavjud bo'lgan II, KI laboratoriyalar, ilmiy markalar bo'limlarini rolini oshirish;

- innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi maxsus fondlarni va venchur bo'limlarni tashkil etish;
- yangilik kiritish sohasida maslahat berish xizmatlarini tashkil etish;
- yangi texnologiyalarni o'zlashtirish muammosi bilan shug'ullanuvchi maxsus tarmoqli laboratoriyalarni yaratishdir.

1.3. Korxonalarda innovatsion loyihalarni baholash tartibi va tanlash usullari

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning texnika va texnologiyalarni takomillashtirishni, yangi texnologiyalar asosida iste'molchilar talablariga mos keladigan raqobatbardosh-innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni talab qiladi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash, jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish hamda innovatsion loyihalarni rag'batlantirish borasida ishlab chiqilgan dasturlar asosida so'nggi yillarda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

“Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatbardoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin”⁸

⁸ Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012-y. 8-bet.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish davlatning muhim investitsion tadbirlaridan biri bo'lib, quyidagi strategik vazifalar bajarilishini ta'minlaydi:


- fan-texnikaning ilg'or yutuqlari amaliyotga tatbiq etilishi orqali milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan texnologik qayta qurilishini ta'minlash;
- mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishida fan texnika va innovatsion potentsialni saqlab qolish va rivojlantirish.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, global iqtisodiy raqobatda faqatgina fan-texnika rivojiga qulay shart-sharoitlar yaratib berilgan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari nisbiy ustunlikka ega bo'ladi. Mutaxassislar fikricha, rivojlangan dunyo mamlakatlari 50 ta makrotexnologiyaning 45 tasiga egalik qiladi, 80-90 % yuqori texnologiyada ishlab chiqarilgan mahsulotlar hamda ushbu mahsulotlar eksportining deyarli barchasi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmokda⁹.

Innovatsiyalarni tashkil qilish mohiyati funksiyasi qabul qilingan IK rivojlanish strategiyasini realizatsiya qilish maqsadida belgilangan rejaviy vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Buning uchun kerakli resurslar hajmini belgilash, masalalarini taqsimlash, ijro etuvchilar vaqtini belgilash, ishtirokchilar kooperatsiyasini aniqlash, nazoratni ta'minlash va boshqa ishlar qilish kerak bo'ladi. (2-rasm). Barcha darajadagi boshqaruvchilar faoliyatining salmoqli qismini egallagan innovatsiyalarni tashkil qilish innovatsion menejmentning asosiy funksiyalaridan hisoblanadi. Innovatsion menejmentda tashkil etish qabul qilingan rejaviy qarorlarni samarali bajarish maqsadida innovatsion jarayonning barcha elementlarini vaqt va oraliq bo'yicha maqsadga muvofiq birligini ta'minlaydi, innovatsiyani tashkil qilishni tizimlashtirilishi va turlanishning muhim belgilari bo'lib tashkiliy qarorlarni vujudga kelish vazifalari, shakllari va usullari tushuniladi.

⁹Фесенко А.Г. Учетно-аналитическое обеспечение управления затратами и финансированием инновационной деятельности. Автореферат дис. на соис. учен. степ. к.е.н. - Сургут.: 2006 г. 3 стр.

Innovatsion menejmentda innovatsiyani tashkil qilishning turli shakllaridan foydalaniladi. Innovatsiyalar tuzilmasi shakllari mazmun jihatidan innovatsion loyihalarni olib borishda mehnat taqsimotining turli usullaridan iborat. Innovatsiyaning bunday tashkil etish shakllariga konsentratsiya, ixtisoslashganlik, kooperatsiyalanish va kombinatsiyalanishlarni kiritish mumkin.



Rasm 2. - Innovatsiyani tashkil qilish shakllari¹⁰

Konsentratsiya ma'lum bir yo'nalishdagi innovatsiyalarning tobora kattaroq miqyosda yirik firma Iklarga jamlanish jarayonini bildiradi. Innovatsion faoliyatning konsentratsiyalanishga intilishi xuddi kichik innovatsion biznesning kengayish jarayoni kabi biznesning eng ilg'or sohalariga mablag'larni innovatsiya qilishdek tabiiy bozor omillaridan biridir. Ixtisoslashganlik innovatsiyalarni tashkil qilish shakli sifatida Iklarni tashkiliy tuzilmalarini barpo qilishda va uning innovatsion ko'rinishini chegaralash yo'llari, hamda kichik bo'limlarga ma'lum turdagi ishlar va mahsulotlarni biriktirishda qo'llaniladi. Bunda innovatsion

¹⁰Райзберг Б.А. Государственное управление инновационными процессами. Экономист. -М, 2008. 35 стр.

ko'rinish kengligi IK ixtisoslashganligi doirasida innovatsion jarayon mustahkamligi va rivojlanish sur'atlari asosida turlicha bo'lishi mumkin. Kooperatsiyalash zamonaviy shartlar asosida tashkil etishning muhim shakli sifatida dunyo tajribasida innovatsion loyihalar o'tkazilishida tan olingan. Kooperatsiyalash IK ixtisoslashganligi va loyihalarni amalga oshirish qiyinchiliklari, tashkilotlararo hamkorlikni chuqurlashuvi, innovatsion sohada xalqaro koordinatsiyaning rivojlanishi, miqyosli ilmiy ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirish natijasi sifatidadir. Kombinatsiyalanish innovatsiyalarni tashkil qilishda IKlardagi allaqachon olingan natijalar yoki xomashyo, energiya va materiallardan ikkilamchi foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish va innovatsion jarayonlarni tashkil etishda va amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Qo'shimcha samarali effekt olish uchun firmalar bazaviy bilimlar doirasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazib, ularni yangi sohalarga joriy etadi. Yuqorida sanab o'tilgan innovatsion jarayonlar tashkil etishning shakllari tashkiliy qarorlarni tayyorlashda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Ular rasmiy hamda norasmiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Korxonalarda innovatsion faoliyatning rivojlanishi nafaqat yaratilayotgan innovatsion mahsulotning texnik ko'rsatkichlariga, balki ushbu innovatsion loyiha xarajatlarini to'g'ri boshqarishga ham bog'liq. Hozirgi kunda yangi mahsulotlarni o'zgaruvchan tashqi va ichki bozorlarga moslashtirishda xamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion loyihalar xarajatlari hisobi uchun usulni to'g'ri va mos qilib tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyihalar haqiqatan innovatsiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki maqsad bilan ko'zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing harakatlaridir. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayoni korxonining butun xo'jalik faoliyatini qamrab oladigan bir nechta bir-biriga bog'liq bosqichlarda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning har bir bosqichini ma'lum bir mablag'larsiz va xarajatlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Ushbu xarajatlar hisobi yetarli darajada murakkab va ko'pqirrali, chunki

xarajatlar turli hisobot davrlariga to'g'ri kelishi, shakllanish joyi va shakli har xil hamda moliyalashtirish manbalari turlicha bo'lishi mumkin.

Innovatsion loyihalarning boshqaruv hisobi — bu korxonada faoliyatida qisqa va uzoq muddatli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun innovatsion loyiha xarajatlarini rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish hamda innovatsion faoliyat natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishning kompleks tizimidir. Bugungi kunda innovatsion loyihalarni amalga oshirmoqchi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda, bizningcha, «target-kosting» (maqsadli tannarx) tizimini qo'llagan ma'qul. Chunki bu tizimda oldindan belgilangan qiymatda iste'molchilar talabini hisobga olib yangi — foydali funksiyalar qo'shilgan mahsulotlar yaratiladi. «Target-kosting» tizimi — bu shunday boshqarish tizimiki, uning yordamida bozor munosabatlariga mos holda xarajatlarni kamaytirish va yangi innovatsion mahsulotlarni rejalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish va maqsadli tannarxni kalkulyatsiya qilish amalga oshiriladi. «Target-kosting» tizimining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib maqsadli narx, maqsadli tannarx va maqsadli foyda hisoblanadi. «Target-kosting» — bu xarajatlarni kamaytirishga asoslangan shunday tizimki, odatda bozordagi talabga mos maqsadli mahsulot tannarxi kalkulyatsiya qilinadi. Ko'p yillardan buyon rivojlangan mamlakatlarda «target-kosting» tizimi ishlab chiqarish korxonalarida, asosan mahsulotning yangi turi va modeli ishlab chiqarilayotgan innovatsion loyihalarda qo'llanilib kelinyapti. Bundan tashqari, «target-kosting» tizimi xizmat ko'rsatish sohalarida, shuningdek, zararga ishlayotgan korxonalar faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishda ham qo'llaniladi.

Oddiy an'anaviy tizimlarda narx quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Tannarx} + \text{Foyda} = \text{Narx}$$

«Target-kosting» tizimida esa, teskari yo'nalishda quyidagiga aylanadi:

$$\text{Maqsadli Narx} — \text{Maqsadli Foyda} = \text{Maqsadli Tannarx}$$

«Target-kosting» tizimida boshqa tizimlardan farqli o'laroq, tannarxni aniqlash sotish narxini belgilashdan boshlanadi. Bu sotish narxi kuchli marketing tadqiqotlari orqali aniqlanadi. Maqsadli tannarxni aniqlash uchun kutilayotgan foyda sotuv narxidan ayriladi. Keyin esa ishlab chiqarish jarayonining barcha ishtirokchilari — menejerdan tortib oddiy ishchigacha — maqsadli tannarxga erishilishi ko'zlanayotgan mahsulotni loyihalashtirish bilan shug'ullanadi. Demak, «target-kosting» tizimining boshqa tizimlardan farqi va ijobiy tomonlari quyidagicha:

- loyihalashtirilayotgan mahsulot tannarxi har bir elementining ikirchikirigacha inobatta oladi;
- loyihachi, menejerlar maqsadli tannarxga erishish uchun harakat qilish mobaynida turli nostandart yechimlar topiladi, bu esa innovatsiyaga sabab bo'ladi;
- doimiy maqsadli tannarxga erishish fikri bilan ishlash ortiqcha xarajatlar qilish va ishga nisbatan mas'uliyatsizlikning oldini oladi.

Shuning bilan birga «target-kosting» tizimining salbiy tomonlari ham mavjud:

- yangi mahsulotni yaratish jarayoni ko'p va qayta-qayta loyihalashtirish natijasida cho'zilib ketishi mumkin;
- «target-kosting» tizimini qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yish, ya'ni haddan ortiq ishchilarga bosim o'tkazish salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;
- loyihalashtiruvchilar va marketing xizmati xodimlari o'rtasida maqsadli tannarxga erishish uchun narx belgilashda turlicha kelishmovchiklar kelib chiqishi mumkin.

Yangi mahsulotning maqsadli sotish narxini belgilashda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- sotish mo'ljallanayotgan bozor segmentlarini tahlil qilish;
- yangi mahsulotga bo'lgan bozor talabini tahlil qilish;
- yangi mahsulotning hayotiylik davrini tahlil qilish.

Innovatsion mahsulotning maqsadli tannarxini asoslashda, fikrimizcha, quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- xarajatlarni shakllantirish bo'yicha qarorlar asoslilikini tahlil qilish;
- innovatsion mahsulotning maqsadli tannarx kalkulyatsiyasini tahlil qilish;
- tadbirkorlik tavakkalchiligini tahlil qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, yangi mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar asosida narx belgilamasdan, innovatsion loyihalarning boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil qilish hamda «target costing» tizimini tanlash orqali maqsadli narx va maqsadli foyda sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobatbardoshligining oshishiga hamda eksportbop mahsulotlarning ko'payishiga turtki bo'ladi. Baholashning ballik usuli quyidagicha. Loyiha natijalariga ta'sir etuvchi eng muhim omillar tanlab olinadi. Me'zonlar ahamiyatlilik darajasi bo'yicha terib chiqiladi. Buni boshqaruvchilardan aniqlash mumkin, ya'ni ularga 100 banddan iborat ko'rsatgichlarni me'zonlar guruhiga ajratish taklif etiladi. Har bir aytib o'tilgan me'zonlar bo'yicha sifatli. Baholar miqdoriy ifodalanadi. Buni mutaxassislar mezonlarini miqdoriy ifodalsh yo'li bilan aniqlay oladilar (1-jadval).

Innovatsion loyihani baholash va moliyalashtirish uchun ularni tanlash bo'yicha uslubiy tavsiyanomalar O'zR davlat mulki qo'mitasi, Moliya vazirligi, Maqroiqtisodiyot vazirligi va TIF agentligi tomonidan tasdiqlangan quyidagi asosiy innovatsion loyiha samaradorlik ko'rsatgichlari belgilangan:

- tijorat (moliyaviy samaradorligi) uni bevosita ishtirokchilariga loyihani amalga oshirishiga moliyaviy oqibatlarini ko'zda tutadi.
- budjet samaradorligi loyihani amalga oshirishini davlat hududiy va mahalliy budjetlari uchun oqibatlarini aks ettiradi;
- xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi innovatsion loyiha ishtirokchilarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qiziqishlari va mumkin bo'lgan baho o'lchovlari doirasida loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va natijalar ko'zda tutadi.

1 – jadval

Innovatsion loyihalarni tanlashni asosiy usullari.¹¹

Usul nomi va qisqacha ta’rifi	Usul afzalliklari	Usul kamchiliklari	Usul qo’llash muhiti
Diskon usuli – o’z o’zini qoplash. Daromadlarning pul oqimi xarajatlarning pul oqimiga tenglash tirishda aniqlanadi.	Pul oqimi kontseptsiyasidan foydalanadi. Qayta moliyalash imkoniyati va pul larning vaqtinchalik bahosi hisobga olinadi.	Agar milliy valyuta konvertatsiyalanuvchi bo’lmasa samarasiz ishlaydi.	Barqaror iqtisodiy muhitda.
Sof joriy qiymat usuli. Daromad va xarajatlar summasi orasidagi farq yoki loyihadan sof pul oqimi sifatida aniqlandi. Agar kursatgich 0 dan katta bo’lsa loyiha o’tadi, agar 0 ga teng bo’lsa korxonada bu loyihaga loqayd	Aksionerlar foydasini ko’paytirishga qaratilgan.	Ba’zan katta xarajatlar talab qiladi. Loyiha uzoq muddatli bo’lganda oz sonli korxonaga to’g’ri keladi.	Rentabelli korxonalarda va har xil pul oqimi loyihalariga ega bo’lgan iuhitda.

¹¹ Райзберг Б.А. Государственное управление инновационными процессами. Экономист. -М, 2008. 48 стр.

Loyihaning tijorat samaradorligi (moliyaviy asosi) talab qilinadigan daromad me'yorlarini ta'minlovchi moliyaviy xarajat va natijalarning o'zaro munosabati bilan aniqlanadi.

Tijorat samaradorligi loyiha uchun to'laligicha hisoblangandek alohida ishtirokchilar uchun ham ularning qoida bo'yicha qo'yilmalari hisobi bilan ham hisoblanishi mumkin. Uning uchun t-qadamda E_t smara sifatida real pul oqimi xizmat qiladi.

Budjet samaradorligi ko'rsatgichlari loyihaning amalga oshirish natijalarini tegishli (federal, regional, mahalliy) byudjetning daromadi va xarajatlariga ta'sirini aks ettiradi. Loyihada ko'zda tutilgan regional va federal qo'llab-quvvatlash choralarini asoslash maqsadida foydalanuvchi budjet samaradorligining asosiy ko'rsatgichi bo'lib byudjet samarasi hisoblanadi.

Integral budjet samarasi diskontlangan yillik budjet samaralarining yig'indisi sifatida yoki budjet integral daromadlarini integral budjet xarajatlari oshirish sifatida hisoblanishi mumkin.

Jahon tajribasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnik faoliyat va shu bilan birga tajribaviy kashfiyotlar o'rtasida farqlar mavjud. Yangiliklar bozori aqliy mehnat vakillari bo'lmish olimlar, muhandislar va boshqa mutaxassislar mehnati natijasida shakllanadi. Ularning mehnati qancha samarali bo'lsa natija ham shuncha yuqori bo'ladi

II BOB. «SIRG'ALI DEHQON BOZORI» OAJ DA INNOVATSION FAOLIYATNING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI

2.1. «Sirg'ali dehqon bozori» OAJ faoliyati tavsifi va tahlili

«Sirg'ali dehqon bozori» Ochiq aksiyadorlik jamiyati Toshkent shahar Sergeli tuman xokimining 1996 yil 28 maydagi 336-k qarori bilan tashkil etilgan. Ustav kapitali miqdori 650,0 mln.so'mni tashkil etadi (2 – jadval).

2 – jadval

«Sirg'ali dehqon bozori» OAJning ustav kapitali¹² (%)

/r	Jamiyat a'zolari	Ulish foizi
	Toshkent shahar hokimligi	95,5
	Yuridik shaxslar (erkin savdo)	3,3
	Jismoniy shaxslar (erkin savdo)	1,2
	Ja'mi:	100


Aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va kollegial ijroiya organi boshqaradi (3-rasm). Jamiyatning asosiy faoliyati bu xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat (dehqon) bozori. Jamiyatning xodimlarining umumiy soni: 30 nafar, ularning tarkibi 4-rasmda ko'rsatilgan. Jamiyatning umumiy ko'rsatkichlari esa 3-jadvalda berilgan.

Bozorda tashkil kilingan pullik xizmat turlari quyidagicha:

- tosh - tarozini foydalanishga berish xizmati;
- katta yukni mahsus tarozida tortib berish xizmati;
- yuk aravachalar xizmati;
- avtoulavlarni vaqtincha saqlash joyidan foydalanish xizmati;
- telefon xizmati;
- poyafzal ta'mirlash xizmati;
- soatsozlik xizmati;


¹² «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik hisobotlari

- pichok, bolta, arra chaxlash xizmati;
- xojatxona xizmati.



Rasm 3. - «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning tashkiliy tuzilmasi¹³

¹³ «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik hisobotlari



Rasm 4. - «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning xodimlari tarkibi va soni¹⁴

3 – jadval


«Sirg'ali dehqon bozori» OAJning umumiy ko'rsatkichlari¹⁵

/r	Ko'rsatkich nomi	O'lcham birligi	Miqdori
	Aktivlarining balans qiymati	ming so'm	678 822,8
	Passivlarning balans qiymati	ming so'm	678 822,8
	Umumiy yer maydoni	ga	10,7
.1	shundan, markaziy bozorda	ga	2,7
	Savdo faoliyati (savdo rastalari hamda savdo va xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar) uchun ajratilgan er maydoni	ga	1,7
.1	shundan, markaziy bozorda	ga	0,3
	Bozordagi ayvonlar soni ja'mi	dona	9
.1	markaziy bozorda	dona	1
.2	Filiallarda	dona	8
	Bozor rastalaridagi savdo	dona	1133

¹⁴ «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik hisobotlari

¹⁵ «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik xisobotlari

	joylari soni ja'mi		
.1	markaziy bozorda	dona	339
.2	Fiiallarda	dona	794
	Turg'un (statsionar) shaxobchalar jami soni	dona	273
.1	do'konlar	dona	224
.2	umumiy ovqatlanish shaxobchalari	dona	7
.3	maishiy xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar	dona	39
.4	boshqa shaxobchalar	dona	3



Rasm 5. - «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning daromadining tarkibi¹⁶

4 – jadval

«Sirg'ali dehqon bozori» OAJning joriy majburiyatlari¹⁷, ming so'm.

Ko'rsatkichlar nomi	Miqdori
Joriy majburiyatlar	245

¹⁶ «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik xisobotlari

¹⁷ «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik xisobotlari

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga kqarz	87 475,4
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz	709 01,4
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz	310 00,7
Mexnatga hak to'lash bo'yicha qarz	561 95,9

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra (5 – rasm va 4 – jadval) jamiyat daromadining asosiy qismini patta tushumi tashkil etadi, joriy majburiyatlari esa 245 573,4 ming so'mga etdi.

Jamiyatning xo'jalik faoliyati natijasida olgan foydasi soliqlarni to'lashdan keyn Jamiyatning mulkida qoladi hamda amaldagi qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq qayta investitsiyalar, Jamiyatning fondlarini yaratish hamda aksiyalar bo'yicha dividendlar uchun ishlatiladi.

Aksiyadorlik Jamiyatining Umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat yilning har choragida, har yarim yilda yoki yiliga bir marta joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga (e'lon qilishga) haqlidir.

Dividendlarni e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari reestrda qayd etilgan aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega.

Jamiyat:

- jamiyat ustav fondining hammasi to'lab bo'linguncha;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) belgilari bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida jamiyatda shunday belgilar paydo bo'lsa;
- jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav va zaxira fondlari summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash (e'lon qilish)

to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

Jamiyatning har bir oddiy (odatdagi) aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi. Oddiy (odatdagi) aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar ushbu jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, jamiyat tugatilgan taqdirda esa, jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga egadir.

Aksiyadorlar:

- tegishli aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- o'zi haqida depozitariydagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- aksiyadorlik jamiyati tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish;
- aksiyadorlik jamiyatining ustaviga muvofiq emitentning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- investitsiya institutlari va emitentlarning uquvsiz yoki g'arazli xatti-harakatlari tufayli ko'rgan zararining to'lanishini talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlar sotib olish vaktida zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urtalash huquqiga ega.

Aksionerlar quyidagilarga majbur:

- Ustav va Uzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda, miqdorda va usullar yordamida aksiyachlarga haq to'lash;
- Jamiyatning faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotni oshkor etmaslik;

- O'z harakatlari bilan Jamiyatning manfaatlariga zarar etkazmaslik.

Aksionerlar shuningdek Ustav va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa huquqlari va majburiyatlariga ega.

Aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va kollegial ijroiya organi (boshqaruv) boshqaradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar ro'yxatini jamiyatning kuzatuv kengashi belgilaydi hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi to'g'risidagi ichki Nizom tomonidan tartibga solinadi.

Jamiyat Aksiyadorlarning hisobot Umumiy yig'ilishini moliyaviy yilning tugaganidan keyin kechi bilan olti oy ichida o'tkazishi lozim. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan rasmiy e'lon qilingan sanadan 3 kalendar kun oldin shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Aksiyadorlarga Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar berish muddati Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishining to'g'risida qaror qabul qilingan paytidan boshlab o'ttiz taqvim kundan oshmasligi lozim. Umumiy yig'ilishini olib borish tartibi umumiy yig'ilish tomonidan raislik qiluvchining taklifiga ko'ra tasdiqlanadi.

Jamiyatning Kuzatuv Kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, ushbu Qonun bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslarning qayta saylanishlari cheklanmaydi. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Aksiyador o'ziga tegishli aksiyalar bo'yicha ovozlarni jamiyat kuzatuv kengashining bitta nomzodiga to'liq berishga yoki bir nechta nomzod o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar kuzatuv kengashi

tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadigan beshta a'zodan iborat. Kuzatuv Kengashining vakolatlari va faoliyat yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va kuzatuv kengashi to'g'risidagi ichki Nizom bilan belgilanadi. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan bir yilgacha bo'lgan muddatga saylanadigan yakkaboshchilik ijroiya organi - Direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Direktorining vakolatiga Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilishning barcha masalalari kiradi, Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv Kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Direktor aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. Direktor jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifoda etadi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Direktorning huquqlari va majburiyatlari Jamiyatning nomidan kuzatuv kengashining raisi tomonidan imzolanadigan aktsiyadorlik Jamiyatining Direktori to'g'risidagi ichki Nizom bilan belgilanadi.

2.2. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash sharoitida korxonaning zamonaviy holati tahlili

Respublika bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni yanada takomillashtirish, aholiga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va savdo qilish sharoitlarini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori chiqqan.

Ushbu qarorga munosib bozorlarga quyidagi innovatsion texnologiyalar kiritilmoqda.

Bozor hududini obodonlashtirishga, obyektlarni joylashtirishga va bozorni jihozlashga qo'yiladigan umumiy talablar.

Bozorda quyidagilar bo'lishi kerak:

- asfaltlangan (chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotish bozoridan tashqari), yaxshi yoritilgan, yondosh hududdan to'siq bilan ajratilgan savdo maydoni;
- bozorda ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;
- bozorning nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan holda davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;
- jihozlangan va tartib raqamlari qo'yilgan turg'un hamda mavsumiy savdo rastalari va savdo qilish uchun joylar, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan pavilonlar). Bunda bozor ma'muriyati tasdiqlagan va bozor ob'ektlarining joylashish sxemasi ko'rinarli joyga osilgan va ob'ektlarning amalda joylashgan o'rni, shuningdek bozor rastalari va savdo o'rinlarining joylashishi xaridorlarning bozorda erkin yurishini hamda savdo rastalari va joylariga bimalol borishini ta'minlashi kerak;
- davlat soliq xizmati organlari, hududiy ichki ishlar organlari, sanitariya-epidemiologiya nazorati, tibbiyot punkti, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki davlat veterinariya xizmati organlarining tayanch punktlarini joylashtirish uchun xonalar (mol go'shti va o'simliklardan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda);
- buyumlarni saqlash joylari, dezinfektsiyalovchi moddalarni saqlash, go'sht mahsulotlarini maydalash (go'sht sotishda) uchun alohida xonalar;
- sotuvchilar va xaridorlar uchun aravachalarni prokatga berish punkti;
- o'lchov-tortish vositalarini prokatga berish punkti (ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozorlaridan tashqari);
- avariya hamda favqulodda vaziyatlar holatlarida yong'inni o'chirish va aholini xabardor qilish vositalari;

- bozorlar hududida va unga tutash hududlarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalari, suv quvurlari, yuz-qo'l yuvgichlar, axlat to'plagichlar, radiouzel va boshqa zarur infratuzilma ob'ektlari.

Ushbu innovatsiyalarni amalga oshirish uchun 5 – jadvalda ko'rsatilgan resurslardan foydalaniladi.

5 – jadval

«Sirg'ali dehqon bozori» OAJning resurslari¹⁸, ming so'm.

Ko'rsatkichlar nomi	Miqdori
Asosiy vositalar:	
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati	228077,
Eskirish summasi	179346,
koldik (balans) qiymati	48731,0
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami shu jumladan:	518647, 3
qimmatli kogoslar	478370, 0
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar	40277,3
Kapital qo'yilmalar	81716,7
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	23820,0

Bozor hududi dehqon bozori, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori, ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulknini sotish bozori bir-biri bilan yondosh bo'lmasligi sharti bilan aniq ajratib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Bozor hududi savdo kompleksi bilan yondosh bo'lishi mumkin.

¹⁸ «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik xisobotlari

Bozor hududida quyidagilar taqiqlanadi:

- obyektlarni joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan tashqari qo'shimcha savdo o'rinlarini tashkil etish;
- yuklarni tashish uchun mo'ljallangan vositalar (konteynerlar)dan oziq-ovqat tovarlarini sotish;
- noziq-ovqat tovarlarini sotish, turg'un savdo shoxobchalari orqali sotish bundan mustasno;
- oziq-ovqat tovarlarini avtomashinalardan sotish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ixtisoslashgan avtotransport va asbob-uskunalardan sotish bundan mustasno;
- alkogolli mahsulotlarni sotish;
- hayvonlar terisini sotish;
- audiovizual asarlar, fonogrammalar, EHM uchun dasturlar va ularning moddiy jismlari, kompyuter va maishiy texnikani sotish qimmatbaho metallar va toshlarni, shuningdek ulardan yasalgan buyumlarni sotish);
- dori-darmon vositalarini sotish (dorixonalardan tashqari);
- veterinariya preparatlari va biologik preparatlarni sotish (ixtisoslashtirilgan dorixonalar va zoologiya do'konlaridan tashqari);
- bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini sotish (davlat sanitariya nazorati talablariga muvofiq maxsus jihozlangan hamda ushbu mahsulotlarni saqlash va sotish shart-sharoitlari ta'minlangan turg'un savdo shoxobchalaridan tashqari);
- bulka nonlar sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);
- uyda tayyorlangan oziq-ovqat tovarlarini sotish.

Tanishish uchun qulay joylarda quyidagilar o'rnatiladi:

- a) tovar turlarining asosiy guruhlari bo'yicha savdo zonalari ko'rsatkichlari;
- b) savdo zonalari, umumiy ovqatlanish va servis xizmati ko'rsatish obyektlari, ma'muriy binolar, davlat soliq xizmati organi, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki bozordagi davlat veterinariya xizmati organining binosi (chorva mollari va o'simlik mahsulotlarini sotishda), nazorat

o'lchovi tarozilari, prokat punktlari, bozorlar hududida va ularga tutash hududlarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalarini va boshqa obyektlarning joylashish sxemasi ko'rsatilgan stendlar;

v) favqulodda vaziyatlar ro'y berganda bozorni evakuatsiya qilish sxemasi;

g) bozordagi kirish joylarida axborot stendi, unda sotuvchilar va bozorga keluvchilar uchun quyidagilar bo'ladi:

- «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va ushbu Qoidalarining matnlari;

- savdo faoliyatini va tovarlarning ayrim turlarini sotishni tartibga soluvchi qoidalar;

- bir martalik yig'im, ijara to'lovi, ko'rsatiladigan majburiy va boshqa xizmatlar ro'yxati va qiymati, shuningdek bozorda savdo o'rinlarini berish hamda xizmatlar ko'rsatish tartibi va shartlari to'g'risidagi axborotlar;

- bozor ma'muriyatining, tuman hokimligining, davlat veterinariya xizmati sanitariya-epidemiologiya nazorati, davlat soliq xizmati, ichki ishlar hududiy organlarining telefon raqamlari.

Savdo operatsiyalari o'lchash-tortish vositalaridan (tarozilar, tarozi toshlari, o'lchovli sig'imler, metrlar va boshqalardan) foydalangan holda amalga oshiriladigan bozorlarda metrologik qoidalar va normalar talablariga muvofiq bo'lgan o'lchov anjomlari mavjud bo'lishi shart.

Tarozilar va boshqa o'lchov anjomlari sotuvchining ish joyida tartib ko'rish, qiymatini aniqlash va tovarni berish bo'yicha barcha jarayonlarning ko'rinib turishi ta'minlangan holda o'rnatilishi kerak.

Bozor hududidagi maxsus ajratilgan joylarda umumiy ovqatlanish, servis xizmati ko'rsatish va tijorat banklari obyektlari (filiallar, mini-banklar, bank kassalari, inkassatsiya punktlari) joylashtiriladi.

Bozorlarda sanitariya kunlari mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi.

Bozor hududida tovarlarni tashishni va bozorda savdo jarayonini tashkil etish tovarlarni tashib keltirish, saqlash va sotish uchun zarur sharoitlarni to'liq ta'minlashi kerak.

Mijozlarning bozor hududiga kirishi – bepul.

Bozor hududida savdoni amalga oshirishda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini qo'llash qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va avtomatlashtirilgan hisobga olishning bank tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar uchun beriladigan cheklar nazorat-kassa mashinalari yoki bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha to'lov terminallarining cheklariga tenglashtiriladi.

Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qo'llaniladigan nazorat-kassa mashinalari yagona texnik talablarga muvofiq bo'lishi kerak va belgilangan tartibda majburiy sertifikatsiyalanishi zarur.

Sertifikatga ega bo'lmagan yoki belgilangan yagona texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalangan holda chek berish aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

Bozorlarda tovarlarni sotishga qo'yiladigan talablar

Quyidagilar dehqon bozorlarida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari hisoblanadi:

- qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari, ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar, yordamchi xo'jaliklar va hunarmandchilik korxonalarini mahsulotlari;

- ko'chatlar, urug'liklar, gullar va gul ko'chatlari.

Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish:

- jismoniy shaxslar – dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari, bog'bonlar va polizchilar, yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar

tomonidan – jihozlangan savdo o'rinlarida, bir martalik yig'imni majburiy to'lagan holda;

- yuridik shaxslar – qishloq xo'jaligi korxonalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va savdo korxonalari tomonidan – ijara shartnomasi shartlarida turg'un savdo shoxobchalari orqali, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini majburiy qo'llagan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul tushumini topshirgan holda amalga oshiriladi.

Bozorlarda yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida olingan tovarlarni turg'un savdo shoxobchalari orqali, bozor ma'muriyati bilan ijara shartnomasi shartlarida, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini majburiy qo'llagan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul tushumini topshirgan holda sotishga ruxsat etiladi.

Dehqon bozorlarida savdo-xarid qilish korxonalari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish, tayyorlash va sotish ham amalga oshirilishi mumkin.

Go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq, go'sht va baliqdan tayyorlangan pazandalik mahsulotlarini, qandolatchilik mahsulotlarini sotish sanitariya-epidemiologiya nazorati, veterinariya xizmati talablariga muvofiq maxsus jihozlangan hamda ushbu mahsulotni saqlash va sotishning zarur shart-sharoitlarini ta'minlovchi, umumiy ravishda foydalaniladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan pavilonlarda amalga oshiriladi.

Bozorda import qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga faqat ushbu bandning ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda ruxsat etiladi.

Import tovarlarni chakana savdoda sotuvchi yakka tartibdagi tadbirkor yuridik shaxs bo'lmasdan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida, eksport-import operatsiyalarini va chakana savdoni amalga oshirish huquqi bilan belgilangan

tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak hamda uning tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni chetdan keltiruvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorning ro'yxatdan o'tkazish (ruxsat berish) tartibotlaridan o'tishining belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kartochnasiga, shuningdek respublika hududiga tovarlar keltirganligini va ularning bojxonada rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga, muvofiqlik sertifikatlariga, bojxona to'lovlari va qat'iy soliq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishi kerak.

Bozorda nooziq-ovqat iste'mol tovarlari (ilgari foydalanishda bo'lgan tovarlardan tashqari) bilan chakana savdo qilish faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va to'lovlarni bank plastik kartochnalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari majburiy qo'llangan holda turg'un savdo ob'ektlari orqali amalga oshiriladi.

Nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini savdo rastalarida sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Bozorlarda xaridorlarga qulaylik yaratish uchun savdo o'rinlari va rastalarda o'rash materiallari (qog'oz va polietilen paketlar, savatlar, jo'natish qutilari) sotishga ruxsat etiladi.

Bozor hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda sotuvchilarda quyidagilar bo'lishi lozim:

- sotilayotgan mahsulotning veterinariya qoida va normalari talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasining yoki davlat veterinariya xizmati organining xulosasi;
- bir martalik yig'im va ko'rsatilgan xizmatlar to'lovi to'langanligini tasdiqlovchi chek.

Ushbu hujjatlar sotuvchida butun ish vaqti davomida saqlanadi hamda bozor va davlat soliq xizmati organlari mas'ul xodimlarining birinchi talabiga ko'ra ko'rsatiladi.


III BOB. KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Korxonalarni boshqarishda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish yo'llari

Iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarning innovatsion rivojlanish xiliga o'tishning tashkiliy boshqaruv jarayonining ta'minlanishi quyidagi tadbirlar majmuasidan iborat:

- korxonaning ishlab chiqarish va sotish operatsiyalarini markazlashtirish;
- mahsulotlarni oddiy maqsadlar va operatsiyalar orqali ishlab chiqarishga yordam beruvchi egiluvchan tashkiliy texnologik tizimini yaratish. Buning asosida ilmiy ishlab chiqarish tizimini yangi avlodni qabul qilish yoki mukammallashtirish yotadi;
- istiqbolli sohalarni egallashga qaratilgan innovatsion tadbirkorlik firmalarni, ilmiy laboratoriyalarni yaratish;
- o'zida istiqbolli ilmiy izlanishlarni va ishlab chiqarish, moliyalashtirishni, ularning natijalaridan foydalanish huquqini egallash, mutaxassislarni o'qitish va qayta o'qitishni moliyaviy jihatdan ta'minlash, maslahat berish xizmatlarini olgan ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni shakllantirish;
- ilmiy izlanish ishlarini olib boish uchun boshqa firmalar bilan aloqani tashkil etish, yangilik firmalarni tashkil etish. Yirik innovatsion loyihalarni amalga qo'llash;
- yetakchi mutaxassislardan keng integratsiyalashuvga o'tish asosida boshqaruvni demokratik va koodinatsion usullarini rivojlantirish.


Bunda tashkiliy strukturani odatda tekis deyiladi, shuning bilan birga yuqori boshqaruvchilar va ijrochilar orasida daraja eng minimal hisoblanadi:



Rasm 6. - AJning ilmiy asoslangan tashkiliy boshqaruv tuzilmasi

- ilm, ishlab chiqarish va bozorni integratsiyalashuvi muammosi bilan bog'liq butun ilmiy qayta ishlab chiqarish tsiklida strategik qarorlarni qabul qilishni ta'minlovchi innovatsion analitik strategik markazlarni shakllantirish;

- ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat sohasida tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, aqliy mehnatni xalqaro taqsimlanishida qatnashish, yirik innovatsion dasturni va loyihalarni amalga oshirish.



Rasm 7. - AJning takomillashgan ilmiy asoslangan tashkiliy boshqaruv tuzilmasi

Innovatsion loyihani baholash va moliyalashtirish uchun ularni tanlash bo'yicha uslubiy tavsiyanomalar O'zbekiston Respublikasining Davlat mulk qo'mitasi, Moliya vazirligi va Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi tomonidan tasdiqlangan quyidagi asosiy innovatsion loyiha samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan.

- Tijorat (moliyaviy samaradorligi) bevosita ishtirokchilariga loyihani amalgacha oshirishda moliyaviy oqibatlarini ko'zda tutadi.
- Budjet samaradorligi loyihani amalga oshirishni davlat hududiy va mahalliy budjetlar uchun moliyaviy oqibatlarini aks ettiradi.

- Xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi innovatsion loyiha ishtirokchilarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qiziqishlari va mumkin bo'lgan baho o'lchovlari doirasida loyihani amaiga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va natijalarni ko'zda tutadi.

Innovatsion jarayonning samaradorlik ko'rsatkichlari. Loyihaning tijorat samaradorligi (moliyaviy asosi) talab qilinadigan daromad normalarini ta'minlovchi moliyaviy xarajat va natijalarning o'zaro munosabati bilan aniqlanadi. Tijorat samaradorligi loyiha uchun to'laligicha hisoblanganidek alo-hida ishtirokchilar uchun ham ularning qoida bo'yicha qo'yilmalari hiso-bi bilan ham hisoblanishi mumkin. Uning uchun t-qadamda (Et) samara sifatida real pul oqimi xizmat qiladi.

Har bir faoliyat chegarasida pul vositalarining oqimi $Pf(t)$ va chiqib ketishi $Of(t)$ bo'lib o'tadi. Ular orasidagi farqni $Ff(t)$ deb belgilaymiz:

$$Ff(t)=Pf(t)-Of(t),$$

bu yerda $i=1, 2, 3,$

Loyihani amaiga oshirishning har bir davrida investitsion va operatsion faoliyatda kelib chiqqan va chiqib ketgan pul vositalari orasidagi farqni real pul oqimi $Ff(t)$ deb belgilaymiz:

$$F(t)=(P1(t)-O1(t))=(P2(t)-O2(t))=A1(t)-A2(t)$$

Budjet samaradorligi ko'rsatkichlari loyihaning amaiga oshirish natijalarini tegishli (federal, regional va mahalliy) budjetning daromadi va xarajatlarga ta'sirini aks ettiradi. Loyihada ko'zda tutilgan regional va federal qo'llab quvyatlash choralarini asoslash maqsadida foydalanuvchi budjet samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib budjet samarasi hisoblanadi.

Loyihani amaiga oshirishning t-qadami uchun budjet samarasi (Bt) loyihani amaiga oshirish bilan bog'liq xarajatlar (Rt)dan daromadni (Dt) oshirish sifatida aniqlanadi.

$$B(t)=P(t)-D(t).$$

Integral budjet samarasi $B(t)$ formula bo'yicha diskontlangan yillik budjet samaralarining yig'indisi sifatida yoki budjet integral daromadiari (Dint)ning integral budjet xarajatlarini (Ring) oshirish sifatida hisoblanishi mumkin.

Xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligining ko'rsatkichlari loyiha samaradorligini butunlay xalq xo'jalik, shuningdek, loyihani amaiga oshirishda qatnashuvchi region, tarmoq va tashkilotlarning qiziqishlari nuqtayi nazaridan aks ettiradi. Xalq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olishda loyiha natijalari tarkibiga quyidagilar kiradi.

Hosilaviylshlab chiqarish natijalari (mamlakat ishtirokchi tashkilotlarining iste'mol mahsulotidan tashqari tashqi va Ichki bozorda butan ishlab chiqarish mahsulotlarining realizatsiyasidan tushgan mablag'). Bu yerda, shuningdek, loyihani amalga oshirish jarayonida ishtirokchilar tomonidan tashkil etiluvchi mulk va intellektual mulkni (kashfiyotlardan foydalanish huquqiga litsenziya, nou-xau, EHMlar uchun dasturlar va h.k.) sotishdan tushgan mablag'lar ham kiradi. Qiymatlilik bahoga tegishli bo'lmagan ijtimoiy, ekologik, siyosiy va boshqa natijalar xalq xo'jaligi samaradorligining qo'shimcha ko'rsatkichlari sifatida qaraladi va loyihani davlat qo'llab quvatlash yoki realizatsiya xarajatidagi qarorlarni qabul qilish bilan hisobga olinadi.

Loyiha xarajatlari tarkibiga loyihani amalga oshiruvchi barcha ishtirokchilarning loyihada ko'zda tutilgan va uni realizatsiya qilishga lozim bo'lgan, joriy va bir vaqtdagi xarajatlari kiritiladi. Shuning uchun hisobga quyidagilar kiritilmaydi:

- iste'molchi tashkilotlarning loyihani boshqa ishtirokchilari bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan mahsulotni olishga bo'lgan xarajatlar;
- loyihaning bir ishtirokchilari tomonidan yaratilgan (qurilgan, tayyorlangan). va ishtirokchilar tomonidan foydalanuvchi asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya chegirmalari;

- investitsion loyihani realizatsiyasi ishtirokchilari qaroriga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, uning agentlari va tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlar;

- xorijiy ishtirokchilarning xarajatlari.

Investitsion loyihani amaiga oshirish jarayonida ishtirokchi tomonidan vaqtincha foydalanuvchi asosiy vositalar quyidagi usullardan biri yor-damida hisobga olinadi:

- asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning qo'lashni boshlash vaqtida bir vaqtdagi xarajatlar tarkibida kiritiladi;

- tugatish vaqtida bir vaqtdagi xarajatlar bu vositalarning qoldiq qiymatidan kamayib boradi. Ko'rsatilgan asosiy vositalar uchun ijara to'lovlari ulardan foydalanish vaqtida joriy xarajatlar tartibiga kiritiladi.

Region (tarmoq) darajasida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashda loyiha natijalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- regional (tarmoq) ishlab chiqarish natijalari: loyiha ishtirokchilari, region (tarmoq) tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan tushgan mablag';

- korxonalar va region aholisi (tarmoq tashkilotlari) tomonidan olinadigan egri moliyaviy natijalar.

Xarajatlar tarkibiga faqatgina loyihaning ishtirokchilari — tashkilotlarining xarajatlari kiritiladi:

- ishlab chiqarish natijalari;

- tashkilot ishchilari va ularning oila a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarga sariflangan ijtimoiy natijalardan tashqari ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushgan mablag'. Bunga xarajatlar tarkibiga tashkilotlarning faqat qayta hisoblashi bir vaqtdagi va joriy xarajatlari kiritiladi.

Investitsiyalash bo'yicha qarorlarni qabul qilish quyidagi har xil omillar ta'sirida murakkablashadi: investitsiyalar turi, investitsion loyihaning qiymati, oson loyihalarning ko'piigi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, tavakkalchilik va h.k.

shubhasiz, qarorlar qator alternativ yoki o'zaro mustaqil loyihalar bo'lgan taqdirdagina qabul qiliriishi kerak.

Investitsion xarakterdagi qarorlarni qabul qilish boshqaruv fa'oliyatining boshqa xohlagin turidek har xil shakllangan va shakllanmagan uslublardan foydalanishga asoslangan. Hayotning harxil hodisasi uchun yaroqli universal uslub mayjud emas.

Rivojlanishning innovatsion yo'lini tanlagan davlatlarda innovatorlar qatlamining shakllanishi venchur moliyalash asosida amaiga oshiriladi: faqatgina u ommaviy masshtablar tavakkalchilikning qayta taqsimlanishida yuz beradi.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion siyosat va uning shakllanish xususiyatlari

O'zbekiston iqtisodiyotining oldida juda muhim strategik masallardan biri turibdi. Bu masala texnologik krizisdan chiqish va ishlab chiqarishning past industrial texnologik usulining shakllanishining tugunli yo'nailishlarida uzilishlar paydo qilish. Bunday yo'nalishlar orasida kosmos, aviatsiya, biotexnologiya, elektronika va informatika sohalaridagi tovarlar va texnologiyalarni belgilash mumkin.

O'zbekiston spetsifikasini hisobga olgan holda yuqorida aytib o'tilgan yuqori texnologiyaning tarmoqlarini rivojlanish yo'nalishlarini stimulirovkasidan tashqari iste'molchilar kompleksi tarmoqlarining kordinal texnik qayta yaxshilanishi lozim, eng avvalo, ishlab chiqaruvchilarni. Bu O'zbekiston bozorini import ekspansiyasidan ko'ra arzonroq va sifatsizroq tovarlarning importidan chegaralash, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvlash uchun lozim.


Innovatsion tadbirkorlarning ilmiy-texnika faoliyatlarini qo'llab-quvatlash sohasida mamlakatning maxsus siyosatini ishlab chiqish va qo'llash lozim. Mamlakat informatsion sistemasini qo'llab-quvvlash potentli fondlarni yaratish loyihalarini

sug'urtalash, qo'llab-quvatlash metodlari va shakllarini qo'llash evaziga innovatsion sferaga kapital qo'yilmasini stimulirovka qilish kerak.

Davlat siyosatining strategik maqsadi bo'lib, XXI asrda O'zbekistonning mustahkam iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan ishlab chiqarishning past industrial texnologik usuli strukturasi shakllantirish, bazaviy innovatsiyaning kirib kelishini amalga oshirish hisoblanadi.

Texnologik bog'lanishning muhim bosh instrumentlaridan bo'lib investitsiyalarning innovatsiyalarga, innovatsion tadbirkorlikka burilishi hisoblanadi. Mamlakat quyidagi kuch va vositalarni shu yolda sarflashi lozim. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Investitsiya bozorini shakllantirish investitsiya resurslarini to'plash, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning zaruriy sharti hisoblanadi¹⁹.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lida amalga oshirilayotgan faol investiya siyosati va o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar tahlili olib borilganda quyidagilar ko'rsatkichlar iqtisodiyotning tiklanish va o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatmoqda²⁰.




¹⁹ Karimov N. Investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari. /Iqtisodiyot va ta'lim. 2011 y., 5-son.

²⁰ Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil, 4-bet.

Rasm 8. - 2011 yil Davlat investitsiya dasturi doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha ulushi.

2011 yilda hududiy investitsiya dasturi doirasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mutloq qiymati 402 million dollarni tashkil etgan. Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning katta qismi Toshkent shahri (39,2 foiz) hissasiga to'g'ri kelgan va xorijiy sarmoyalar ishtirokida faoliyat olib borayotgan korxonalar soni mazkur yilda 273 taga ko'paygan. Umumiy hisobda mamlakatimiz bo'yicha 2011 yilda xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni 372 tani tashkil etgan. Boshqa hududlarimiz bo'yicha ma'lumotlar 3.2.3-rasmda keltiriladi.



Rasm 9. - Hududiy investitsiya dasturi doirasida 2011 yilda jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi

2011-ilning 1-kyabr holatiga ko'ra, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni jami 4575 tani, shundan faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 4203 tani tashkil etgan. Faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalarning 1600 tasi

tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar hisoblanadi. Yurtimizda o'tkazilayotgan innovatsion siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Mamlakat siyosati innovatsion tadbirkorlik aktivizatsiyasining samarali shakllaridan foydalanishni oldindan belgilashi va ayniqsa, moliyaviy sanoat guruhlarining va xoldinglarning funkcionirovka mexanizimi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi yirik strukturalarni qo'llab-quvatlashi bilan birga kichik innovatsion tadbirkorlikning ham shakllantirishi lozim. Bugungi kunda 90% ga yaqin innovatsion faoliyat subyektlari davlatga qarashli boimagan sektorga tegishli. Shunisi tushunarliki, mamlakat o'z zimmasiga innovatsion faoliyatni innovatsion ta'minlanishini ololmaydi. Biroq mamlakat davlatga qarashli bo'lmagan investitsion korporatsiya, banklar investitsion resurslarni mobilizatsiya qilish va ularni mamlakat uchun ahamiyatliroq realizatsiyasiga yo'naltirishi mumkin va kerak. 80-yillarga kelib, AQSH va boshqa G'arbiy davlatlarda kichik biznes innovatsion mexanizimning eng muhim komponenti, uzoq muddatga iqtisodiyotning gullab yashnashiga olib keluvchi investitsiya obyekti, deb tan olindi.

Innovatsion faoliyatining rivojlanishi uchun quyidagi jihatlarni belgilash lozim:

- intellektual shaxsiylikni huquqiy qo'riqlash sistemasini yaratish O'zbekistonda tugallanmagan;
- mamlakatning «Tovar belgisi va patentlar» bo'yicha O'zbekiston agentligining yuqori patentli to'loyini shakllantirishi to'g'risidagi qonuniga ko'ra sud tartibida tortishuv savollarining yechilishiga O'zbekiston fuqarolarining konstitutsion huquqini amalga oshirilishini ta'minlash;
- mamlakatning federal budjet vositalaridan yaratilgan intellektual shaxsiylik obyektuari va ular bilan bog'liq texnologiyalarga bo'lgan aniqiik yo'qiigidan sanoat innovatsiyasining rivojlanishi oqsamoqda;

- haligacha biznesda kashfiyotchilik bazasida oldi texnologiyalaridan foydalanish stimuli rovaniyasining tashkiliy-huquqiy mexanizimi yaratilmagan, shuningdek, kichik tadbirkorlik sohasida ham O'zbekiston fuqarolarining intellektual shaxsiylik sohasida yaratuvchanligining rivojlanishini va kashfiyotchiligini rag'batlantirish siyosatining sustligi.

Respublikada davlat boshqaruvi vakolatlarini cheklash va vazifalarni nomarkazlashtirish bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda:

- bir paytning o'zida tarmoq boshqaruvidan funksional boshqaruvga o'tishnazarda tutuvchi gorizontal nomarkazlashtirish:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarining bo'inishi, bosqichma-bosqich tarzda tegishli xo'jalik birlashmalarini nazorat ishlaridan ozod qilinishi;

- vertikal tarmoq dekonse'nratsiyasi. Bu jarayon respublika organlari vazifalarining bir qismini quyi tuzilmalariga, jumladan, xususiy sektorga berish orqali amalga oshiriladi;

- resurslarning markazlashtirilgan taqsimotini butunlay tugatish, mavjud taqsimlash tizimini bekor qilmasdan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining korxonalar faoliyatiga aralashuvini nomarkazlashtirib va qisqartirib bo'lmaydi;

- vazifalarning bir qismini respublika markazidan joylardagi davlat boshqaruvi organlariga o'tkazish. Hozirda mintaqalar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tobora faol subyekti bo'lib bormoqda;

- davlat hokirniyati vazifalarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berish.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi uning boshqaruvi bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion siyosat o'tkazilishi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar maqtovga sazovordir. Respublikada innovatsion loyihalar doirasida energiya va resurslarning tejamkor texnologiyalarini o'zlashtirish va fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan loyihalarga bo'lgan e'tib alohida ahamiyatga egadir. Shu davr ichida «O'z kimyosanoat» DAKga sanoatda

qo'llash uchun 23 ta texnologiya va ishlanmalar topshirildi. Mazkur texnologiya ishlanmalarni «O'z kimyosanoat» DAK tasarrufidagi korxonalarda o'zlashtirish maqsadida bir necha bosqichli innovatsiya mexanizmi ishlab chiqildi.²¹ Natijada Samarqand kimyo zavodida mahalliy xom ashyodan yangi nitrokalts fosfatli o'g'it ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi. Zavodda mavjud bo'lgan texnologik uskunalar bilan bir qatorda yangi ishlangan uskunalar asosida o'g'it ishlab chiqaruvchi sanoat tizimi ishga tushirildi. Natijada o'g'itning ozuqalik darajasi superfosfatnikiga nisbatan ikki marotaba yuqori bo'lishiga erishildi. Nitrokaltsiy fosfatli o'g'itni ishlab chiqarishning bir yillik quvvatini ming tonnaga etkazishga erishildi. Bu innovatsion yangilik respublikada qurish zarur bo'lgan oltingugurt ishlab chiqarish korxonasini qurish shart emasligi sababli katta miqdorda valyuta va moddiy boyliklarni tejashni ta'minladi. Innovatsion yangiliklardan yana biri - bu Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati faoliyati natijasida 12 mln. tonna yig'ilib qolgan chiqindini qayta ishlash loyihasidir.²² Buni amalga oshirish asosida qo'shimcha turli rangli metallar olinib va ekologik muhitni yaxshilash mumkin. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishi bo'yicha bu chiqindilar tarkibida 30-35 foiz temir, 1-1,5 foiz mis, 30-35 foiz kremniy dioksidi va 0,4-0,6 g/t oltin borligi aniqlangan. OTMKning mis zavodida chiqindilardan ferrosilitsiy, rangli va qimmatbaho metallarni ajratib olish texnologiyasi ishga tushirildi. Natijada 1 tonna chiqindidan 286 kg temir, 359, kg kremniy dioksidi va 30 kg mis ajratib olindi. Og'ir metallurgiya sanoati uchun zarur bo'lgan oyiga 5 tonna 20 rusumli ferrosilitsiy qorishmasi ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi. Iqsodiy samaradorlik 5 tonna olingan mahsulotdan 12 mln. so'mni tashkil etdi. Energetika sanoati respublika iqtisodiyotining asosiy tarmoqdaridan biri hisoblanadi. Bu sanoat korxonalari atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalardan hisoblanadi. Jumladan, Angren GRESi 42 yildan ortiq faoliyat olib borishi davrida 15 mln. tonnadan ortiq kul chiqindilarini chiqarishi atrof-muhitning ifloslanishiga olib

²¹ J. Moliya. Toshkent.2012 yil. № 5-6. 124 bet

²² J. Moliya. Toshkent.2012 yil. № 5-6. 124 bet

kelmoqda. O'tkazilgan innovatsion tadqiqotlar asosida kulning tarkibida 35 foizgacha temir va alyuminiy qotishmalari, 20 foizdan ortiq kaltsiy oksidi borligi aniqlangan va chiqindilarni qayta ishlash va ulardan metall qorishmalarini ajratib olish quvvati 100 kg/soat bo'lgan qurilma texnologiyasi yaratildi va ishlab chiqarishga joriy etildi. Natijada 100 kg chiqindi-kul tarkibida 90,9 foiz temir elementi bo'lgan, GOST 1412-85, 1415-83, 1583-93 talabiga mos keladigan 55 kg qorishmalar olingan va yillik iqtisodiy samaradorlik 15,4 mln. so'mni tashkil qildi.²³

Andijon viloyatida to'qimachilik korxonalarida yiliga hosil bo'layotgan 500 tonna chiqindini qayta ishlash maqsadida quvvati yiliga 700 ming kv.metr noto'qima mato ishlab chiqaradigan texnologik tizim ishga tushirildi.

Qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari asosan qurg'oqchilikka chidamli va yuqori hosilli paxta navlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Natijada g'o'zaning yangi «Denov» navi yaratilib, Surxondaryo viloyatining sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan erlarida davlat sinovidan o'tkazildi. Sinovlar natijalariga ko'ra, bu navning suv iste'mol qilishi boshqa navlarga nisbatan 30-35 foiz kamdir.

Innovatsion investitsiyalashtirish faoliyatini rivojlantirish tibbiyot va farmakologiya sohasida alohida ahamiyatga ega. Andijon tibbiyot institutida anemiya kasalligini davolashda qo'llaniladigan mahalliy «Gemalin» preparatini ishlab chiqarish texnologiyasi yo'lga qo'yildi. Ishlab chiqarilgan 10,5 ming flakon «Gemalin» preparati yordamida 3500 nafar anemiya bilan kasal bo'lgan bemorlar davolandilar. Natijada davolash uchun ketadigan xarajatlar o'rtacha 35-40 foizga kamayishi xisobiga 52 mln. so'mdan ortiq moddiy mablag' tejab qolindi.

Mamlakat miqyosida innovatsion faoliyat bozor talablarini e'tiborga olgan holda iqqisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olishi zarur. Aks hodda soha va tarmoqlarni samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdorda foydani olishga

²³ J. Moliya. Toshkent.2012 yil. № 5-6. 125 bet

erishish qiyin muammo bo'lishi bilan birga ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida olib borishga salbiy ta'sir etadi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda ma'lum darajada tashkiliy iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud, bular quyidagilardan iborat:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmasliklari oqibatida innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan xususiy mablag'larning etishmasligi;

- korxonalarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlarning yo'qligi;

- innovatsiya faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy jihatdan boy tajribalarga ega bo'lgan malakali kadrlarning etishmasligi;

- innovatsiya faoliyatini olib borish uchun maxsus laboratoriya, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jihozlarning etishmasligi;

- xorijiy mamlakatlardan innovatsion mahsulotlarning kirib kelishi respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi.

Innovatsiyalarni yaratish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanishni nazorat qilish, undan samarali foydalanish uslublarini takomillashtirish, innovatsiya ishlarini olib boruvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish ularning manfaatdorligi va javobgarligi bilan bog'liq.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdagidek, innovatsion faoliyat ytarli darajada investitsiya mablag'lari bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Bu muammoni hal etish, respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun imtiyozli innovatsion kredit mablag'larini beruvchi innovatsion bank tizimini tashkil etish hozirgi davr talabiga javob beradi, deb hisoblaymiz.

3.3. Korxonada faoliyatida innovatsiyalarni boshqarishning xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari

Xorijda innovatsion jarayonni boshqarishga bag'ishlangan ancha ilmiy va amaliy adabiyotlar mavjud. Ularda innovatsiyalarni turli jihatlari yoritilgan. Yapon innovatsion menejmenti usullari Evropa va Amerika usullaridan keskin farq qiladi (6-jadval). Bu bilan yaponlar unumliroq boshqaradi, deb bo'lmaydi. Yevropa va Yaponiyaning usullari faqat boshqa tekisliklarda yotadi va ularning bir-biri bilan kesishishi juda kam ro'y beradi. Uning asosiy farqi nima? Avvlambor bu boshqaruvning nimaga yo'naltirilganligiga bog'liq. Masalan, Yaponiyada boshqaruv markazida mehnat resurslari yotadi. Yapon boshqaruvchisi korxonada samaradorligini oshirish uchun mehnat unumdorligini oshirishga harakat qiladi. Yevropa va Amerikada esa asosiy maqsad kam ish va harakat qilib, ko'p daromadga erishish yotadi. Menejment bo'yicha yapon mutaxassisi Xideki losixara yapon boshqaruvini 6 ta xususiyatini ko'rsatib o'tgan.²⁴

- Doimiy bandlik kafolati va o'zaro ishonch sharoitini mavjudligi, bunday kafolatlar kadrlar qo'nimsizligini kamaytiradi va xodimlarni barqaror faoliyat ko'rsatishlari uchun ishonch tug'diradi. Bu esa xodimlarni keyinchalik vertikal (lavozim) zinapoya bo'yicha ko'tarila olishi mumkinligiga ishontiradi va korxonada jamoat bo'lib ishlashga undaydi.

- Korparatsiyaning birdamligi va u uchun qimmatli deb hisoblangannarsalarning mavjudligi. Agarda barcha ishchilar va boshqaruvchilar korxonada siyosati haqida axborot beruvchi bitta axborot bazasidan ma'lumot olishadigan bo'lsa, bubarcha xodimni bir bo'lib harakat qilishga undaydi.

- Axborotga asoslangan boshqaruv televizorlar ishlab chiqaruvchi firmalarda ko'pincha axborot yig'ib olish sistemasidan foydalanishadi.

- Sifatga qaratilgan boshqaruvda ko'pincha yapon firmalarning boshqaruvchilari sifatni nazorat qilishga katta ahamiyat berishadi. Ishlab chiqarish jarayonida ularning asosiy masalasi sifat haqidagi aniq ma'lumotlarni olishdir.

²⁴ Санто Б. "Инновации как средство экономического развития". М.: Прогресс. 2000 г. 260 стр.

Ishlab chiqarishda boshqaruvning doimiy mavjudligi. Qiyinchiliklarni va muammolarni joriy hal qilish uchun yaponlar boshqaruv personalini ishlab chiqarish majmualarida joylashtiradi. Bu muammo tez hal bo'lishiga xizmat qiladi. Yangiliklarni rivojlantirish uchun yangiliklar taklif qilish sistemasi va sifat to'garaklari keng qo'llaniladi.

Tozalik va tartibni ushlab turish. Yapon mahsulotlarining yuqori sifati ishlab chiqarishda tozalik va tartibga rioya qilish orqali kelib chiqadi. Yapon boshqaruvchilari shunday tartib o'rnatishga harakat qiladiki, bu tartib ham yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undasin, tozalik va tartibga rioya qilishga chaqirsin.

Umuman olganda yapon boqaruvi insonlarga xos tuyg'ular va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bular kelishilganlik, guruhli moijal olish, xodimlarni aqliy xususiyatlari, bandlik barqarorligi va boshqaruvchilar hamda xodimlar o'rtasida birdamlak aloqalaridir. Yapon boshqaruvining falsafasi. Yaponiyaning zamonaviy boshqaruv usullari urushdan keyingi davrda dunyoga keldi. Urush keltirgan buzg'unchiliklardan keyin yapon boshqaruvchilari oldida ijtimoiy, siyosat va raqobat, hayotni ko'tarish masalalari ko'ndalang bo'lib turgan edi. Shu davrda Amerika boshqaruv usullari butun dunyoni qamrab olayotgan davrda, bu usullardan to'g'ri foydalangan yaponlar mamlakat iqtisodini ko'tarishga erishdilar. Yapon boshqaruvchilari o'zlarining oldingi boshqaruv usullari bilan birgalikda Amerika usullarini qo'shib, yangi yapon usullarini hosil qildilar. Shuning oqibatida vujudga kelgan yapon boshqaruv usulidagi ba'zi jihatlar Amerika boshqaruv usulida mayjud emas.

Xorij mamlakatlarida ilmiy tadqiqotfarga moliyalashtirishning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Rossiya	AQSH	Yaponiya	Germaniya
YAIMdagi ilmga xarajatlar, %	0,94	2,5	2,6	2,4
ITTKIni moliyalashtirish, %	100	100	100	100
Davlat budjeti, %	48	35,8	19,5	34,1
Turli xil nobudjet fondlari, %	6	5,1	7,1	—
Boshqa manbalar, %	46	59	73,4	65,9

Yaponlar doim o'zlarini jamoaning bir bo'lagi sifatida biladilar. Va ular, E. Mayo aytganidek, ish — bu jamoa faoliyatidir, degan shiorga doim amal qilishadi. Yaponiyadagi boshqaruv usullarini o'zgarishi optimal tizim yaratish uchun konsepsiya tanlashda erkinlik va hurfikrlikni o'sishidir. Ammo bu o'zgarishlar Yaponiyaning milliy urf-odatlariga zid bo'lmasligi kerak. Bu haqda yirik tadbirkor S.Xonda shunday fikr bildiradi:

«Kimki korxonalar boshqaruvchisi bo'lsa, u avvalo, boshqaruv usulini hamma tomonlama isbotlangan holda ko'rsatmog'i darkor, U korxonaning aniq maqsadlarini ko'ra biladigan va korxonaning siyosatini va rejalarini shunday tuzishi kerakki, ishchilar faoliyati davomida o'z mas'uliyatini sezib, ishdan qoniqish hosil qilsinlar. Buning uchun lider nazariy jihatdan kuchli va amaliy jihatdan hayotiy konsepsiyaga ega bo'lishi kerak.»²⁵

²⁵ Санто Б. “Инновации как средство экономического развития”. М.: Прогресс. 2000 г. 355 стр.

Yapon boshqaruvining yana bir xislati uning uzluksiz o'qish va o'qitish konsepsiyasidir. Yaponlar o'qishni o'z ishlari va hokimyat pog'onasi bo'yicha ko'tarilish uchun kerak bo'lgan omil deb biladilar.

Yaponlar birovlaming xatolarida o'iganishni xush ko'radilar. Ular doim tashqi olamdagi o'zgarisarni qiziqish ila kuzatib turadilar.

1947-yili «Panasonik» kompaniyasining asoschilaridan biri 1. Matsusita boshqanjv savollari bo'yicha «Donnay» nomli laboratoriya tashkil qiladi va uning birinchi xulosalaridan biri quyidagicha bo'ladi: «Har qanday tashkilot uning katta-kichikligiga qaramay, daromad olishdan farqli bo'lgan boshqa maqsadga ega bo'lishi kerak. Bu maqsad uning faoliyatini tu-shuntirib turishi lozim. Agarda boshqaruvchi ushbu missiyani to'liq tu-shunib yetsa, uni xodimlarga to'g'ri tushuntirishi lozimdir.

«Inson potensiali» konsepsiyasini tushunishda Ringning jamoa bo'lib qaror qabul qilish sistemasini olishimiz mumkin. Unga ko'ra qaror qabul qilish uchun javobgarlikni butun guruh o'z bo'yniga olishi lozim. Bu sistemada masala o'rta tashlangandan so'ng oldin noformal guruhlarda muhokamadan o'tadi, agar kimdir bu masalaga qarshi chiqsa, savol yana ushbu masalani o'rta tashlagan insonga boradi.

Yapon usullari ko'pchilikni ustun kelishi emas, balki hammaning fikri birdamligi asosida qurilgan. Albatta, hammaning fikri bir xil bo'lmaydi, shuning uchun ma'qul bo'lgan kompromiss topiladi. Yaponlar uchun o'zidan yoshi va lavozimi jihatidan katta bo'lgan insonga gap qaytirish yoki uning fikriga qo'shilmsalik tarbiyasizlik alomati deb qarala-di. Shuning uchun norozilikni o'ta diplomatik holda bildirish lozimdir. An'anaviy bo'lgan «X» va «U» modeliga qarama-qarshi bo'lgan holda, yaponlar «inson potensiali» modelini muvaffaqiyatini qo'llab kelishyapti. Unga ko'ra odamlar o'z qobiliyatlarini rivojlantirgan va qoilagan holda bu ishdan qoniqish hosil qilsin.

O'rta pog'ona boshqaruvchilariga Isikava Kaoru ushbu maslahatlarni beradi:

- Xodimning foydaliligi uning fizik jihatdan doim mavjudligi bilan emas, balki bu xodimga firmaning ehtiyoji bilan belgilanadi.

- Kimki xodimlarning boshqaruvi bilan shug'ullansa, bu faqat yarmga boshqaruvchidir. Haqiqiy boshqaruvchi deb shunday boshqaruvchi olinadiki o'zidan yuqori turganlarni ham boshqara olsin.

- Qo'l ostidagi ishchilarga ba'zi huquqlar berilishi ularning qobiliyatlarini hartomonlama rivojlanishi va faollashishiga olib keladi.

- Yuqori pog'onadagi boshqaruvchilarning sizning ishingiz natijalariga bo'lgan munosabatini doim kuzatavermang.

- O'rta pog'ona boshqaruvchilari va ularning qo'l ostidagilari o'zlarining ish natijalari haqidagi axborot haqiqiylikigajavobgardirlar.

- O'rta pog'ona boshqaruvchilari sifat to'garaklari faoliyatiga javobgardirlar.

- Funksiyalar bo'yicha boshqaruv deb hisoblangan boshqa bo'limlar bilan hamkorlik va aloqa.

- Kelajakka yo'nalish firmaning samarali faoliyati uchun asosiy omildir. Firma boshqaruvchisi o'z ishida 10 yil oldinga yo'nalib faoliyat ko'rsatmog'i, yuqori pog'ona boshqaruvchisi 5 yil oldinga yo'nalib faoliyat ko'rsatmog'i, bo'lim boshlig'i 3 yilga va bo'lim boshlig'i kamida 1 yil oldinga o'z faoliyatini yo'naltirmog'i kerak.

Hozirgi paytda jahon hamjamiyatining rivojlangan mamlakatlarida an'anaviy ilmiy texnika taraqqiyotida innovatsion, ilmiy texnologik tartibga jadal o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Innovatsion tartibning awalgisidan farqi shundaki, fanning shakllanishi va davlat tomonidan moliy'alashtirish tizimidan texnologik va ilmiy innovatsiyalar barcha turlarini davlat tomonidan rag'batlantirishga o'tish kuzatilmoqda.

Hozirda AQSHda va xususan, g'arbiy Yevropada, eng awalo Fransiya, Germaniyada fan-texnika siyosatining innovatsion siyosatga aylanishi ro'y bermoqda. Uning asosiy vazifasi — ilmiy va texnologik innovatsiyalar, eng awalo, kichik va o'rta korxonalar uchun, shuningdek, o'rta va qisqa muddatli dasturlar sohasida tezkor dversifikatsiya uchun eng qulay sharoitlar yaratishdir. Fanni moliyalash bo'yicha AQSH jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ITIMTni moliyalashdagi davlatning roli ancha faol bo'lib, faqat

davlat tashkilotlari tomonidagina amalga oshirilmaydi. Hozirgi vaqtda AQSHda federal hukumat ulushi (moliyalash manbasi sifatida) barcha xarajatlar salmog'ining 50 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Gollandiyada 40 foiz atro-fida, Fransiyada 57 foiz, Yaponiyada 28 foiz. ITIMT sohasining davlat tomonidan bunday e'tibor bilan ko'plab quvatlanishi qonuniy bo'lib, bir qator dalillar bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqot konstruktorlik ishlari davlat tomonidan turli shakllarda qo'llab-quvvatlanishi mumkin, jumladan:

- ilmiy tadqiqotlar uchun bevosita budget mablag'ini ajratish (davlat tashkilotlari orqali moliyalash, shartnomalar tuzish, subsidiyalar ajratish). Ayni holatda davlat yirik xarajatlar talab qilinadigan va ko'plab ta-vakkalchilikka ega bo'lgan fanning yetakchi yo'nalishlaridagi ko'p kapi-talli tadqiqotlarni moliyalashni o'z bo'yniga oladi;

- ilmiy tadqiqotlarni (ITIMT) bilvosita moliyalashning turli usullari: xususiy kompaniyalar, innovatsiya jarayonini rag'batlantirish, shuningdek, ular investitsiyasini yangi asbob-uskunalar olish uchun kengaytirish maqsadlarida soliq va amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish.

AQSH davlat innovatsiya siyosatining obyekti — bu asosan xususiy biznesdir. Davlatning bu boradagi siyosati mavjud ilmiy-texnik yutuqlardan xo'jalikda foydalanishga, ilmiy-texnik majmuada ichki aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Davlat innovatsiya siyosatining usul va vositalari ancha keng. Bunga u yoki bu ma'noda biznesning innovatsion faolligini rag'batlantiruvchi turli xil davlat tadbirlari kiradi. Amerikalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, eng samarali tashkiliy shakllardan biri universitet — sanoat, tadqiqot markazlari sanaladi. Davlat ishtirokida tashkil etiladigan bunday markazlar doirasida juda keng ko'lamdagi ilmiy-texnik masalalarni hal etish imkoni mavjud. Sanoat korxonalarini va universitetlarning hamkorlikdagi tadqiqotlariga oid yirik dasturlar davlatning maqsadli ilmiy jihatdan ishtirokchilar faoliyatining boshqa korporatsiya mexanizmini nazarda tutadi.

O'zbekistonda AQSH davlat innovatsiya siyosatining ma'lum bir tomonini qo'llash mumkinki, bunda davlat moliyaviy mablag'larining umumlashishini va sanoat moddiy texnika bazasini malakali oliy o'quv yurtlari kadrlari bilan ta'minlashi rag'batlantirilishi lozim. Uzoq istiqbolga moijallangan tavakkal ilmiy texnika loyihalariga mablag' ajratishga sanoat korxonalarini qiziqtirish uchun davlat dastlabki xarajatlarni o'z bo'yniga olib qolmasdan, ishtirokchi firmalarga kashfiyot va ixtirolardan foydala-nishda bepul litsenziyalar ham berishi kerak bo'ladi.

AQSHdagi eng yirik kompaniyalarda ishlab chiqarish hajmi ko'pincha eng maqbul me'yordan oshadi, aynan shu narsa ilmiy texnika soha rivojlanishida monopoliyani to'xtatadi, kichik firmalar faoliyatining muvaffaqiyati ham shunda. O'zbekistonda yirik firmalar sateliti (ko'makchisi) sifatida ishlaydigan kichik firmalarni tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, demak, O'zbekistonda shakllanayotgan innovatsiya sohasi jiddiy texnologiyalarni amalga oshirish assotsiativ shaklda ilmiy tekshirish tashkilotlari va korxonalari imkoniyatlarini vaqtinchalik yoki doimiy tarzda birlashtirishni talab etadi. Albatta, bunda bosh loyihani amalga oshirish uchun davlat buyurtma berish orqali ko'maklashmog'i kerak.

MDH mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarga texnik jihatdan ko'maklashish bo'yicha TASIS dasturi birinchi galda o'z oldiga xususiyashtirishning bozor shakllari, moliya, tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlik infratuzilmasini yaratish sohasidan Yevropa Nou-Xau tajribalarini o'zlashtirishga qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, u asosan boshqaruv, axborot va moliya sohasidagi loyihalarni moliyalashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiya jarayonlarini boshqarish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish xorij texnologiyasini keltirish, raqobatbardoshlik yo'nalishlarini aniqlash va boshqa masalalarni hal etishga qaratilgan.

XULOSA

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni hayotga tadbiq etishda, aholinig ijtimoiy turmush tarzini yanada ko'tarishda, qolaversa xalqning farovon hayoti uchun bevosita o'z ta'sirini ma'lum bir ma'noda o'tkazishda, siyosiy-ijtimoiy nuqtai nazardan ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi omil sifatida xayotiy siklda bevosita ishtirok etuvchi korxonatashkilotlarning o'rni bozor munosabatlari davrida muhim ahamiyatni kasb etadi. Bu omillarning rivojlantirishda va hamda ularning iqtisodiy salohiyatini oshirib, sog'lom raqobat muhitida o'z mavqega ega bo'lishda, davr talabiga monand ilmiy texnik va ma'naviy yangiliklarning o'z vaqtida amaliyotda tadbiq etish maqsadga molikdir. Zamonaviy texnologiyalar asosida korxonalarda yangicha ishlab chiqarishni tashkil qilish, qo'shimcha xizmat turlarini taklif etish va mavjud mahsulot va xizmat turlarining sifatini oshirish asosida korxonalarni boshqarishni innovatsion jihatdan rivojlantirish jamiyat zaruriyatidir.

Innovatsiyani ilmiy izlanishlarda, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarda xalqaro standartlarga asosan qo'llanilishi, bu bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkiliy strukturaning to'g'ri tashkil etilganligidan dalolat beradi. Xalqaro standartlarga asosan innovatsiya orqali, umumun inovatsion faoliyat orqali qo'lga kiritilgan yangi bir turdagi mahsulotni, xizmatni yoki ularni takomillashtirilgan ko'rinishda bozorga kiritilishi, shu bilan birgalikda yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga tadbiq etilishi bu ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuvni shakillantirib beradi.

Tashkilotlarga kirishdagi innovatsiyalar, ya'ni bunda xom – ashyolarga, materiallarga, ma'lumotlar va mashina uskunalarga bulgan tanlovda o'zgarishlarni tushunish mumkin. Tashkilotlardan chiqishdagi innovatsiyalar, ya'ni bunda to'lov berilgan buyumlar, xizmatlar, texnologiyalar va hokazolar tushuniladi. Tashkilotning tizimli strukturadagi innovatsiyalar, ya'ni boshqaruv, ishlab chiqarish va texnologik strukturadagi innovatsiyalar.

O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jahon bozorida milliy mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning erkin savdosini tashkil etish va keskin raqobat sharoitida mamlakatlararo tovar ayriboshlash sohasida o'z o'rnini topishga zamin yaratadi. Buning uchun mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyatini ko'tarish, birinchi navbatda, iqtisodiyotining barcha tarmoqlari, jumladan, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohaslarida texnik darajani tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ilmiy texnika taraqqiyoti mahsulotlarini amaliyotga joriy etishni jadallashtirishga katta e'tibor qaratish lozim.

Shu maqsadda «Sirg'ali dehqon bozori» Ochiq aksiyadorlik jamiyatining faoliyatida innovatsion texnologiyalarining kiritilishi o'rganib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori chiqqan.

Mamlakat miqyosida innovatsion faoliyat bozor talablarini e'tiborga olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olishi zarur. Aks holda soha va tarmoqlarni samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdorda foydani olishga erishish qiyin muammo bo'lishi bilan birga ishlab chiqarish jarayonini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida olib borishga salbiy ta'sir etadi.

Tadqiqotlar natijasida iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarning innovatsion rivojlanish xiliga o'tishning tashkiliy boshqaruv jarayonining ta'minlanishi uchun quyidagi tadbirlar taklif qilinmoqda:

- korxonaning ishlab chiqarish va sotish operatsiyalarini markazlashtirish;
- mahsulotlarni oddiy maqsadlar va operatsiyalar orqali ishlab chiqarishga yordam beruvchi egiluvchan tashkiliy texnologik tizimini yaratish. Buning asosida ilmiy ishlab chiqarish tizimini yangi avlodni qabul qilish yoki mukammallashtirish yotadi;
- istiqbolli sohalarni egallashga qaratilgan innovatsion tadbirkorlik firmalarni, ilmiy laboratoriyalarni yaratish;

- o'zida istiqbolli ilmiy izlanishlarni va ishlab chiqarish, moliyalashtirishni, ularning natijalaridan foydalanish huquqini egallash, mutaxassislarni o'qitish va qayta o'qitishni moliyaviy jihatdan ta'minlash, maslahat berish xizmatlarini olgan ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni shakllantirish;

- ilmiy izlanish ishlarini olib boish uchun boshqa firmalar bilan aloqani tashkil etish, yangilik firmalarni tashkil etish. Yirik innovatsion loyihalarni amalga qo'llash;

- yetakchi mutaxassislardan keng integratsiyalashuvga o'tish asosida boshqaruvni demokratik va koodinatsion usullarini rivojlantirish.

Innovatsiyalarni yaratish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanishni nazorat qilish, undan samarali foydalanish uslublarini takomillashtirish, innovatsiya ishlarini olib boruvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish ularning manfaatdorligi va javobgarligi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2009 -y 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 24.12.1998. 719-I-son. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son; 2004-y., 1-2-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 41-son; 2008-y., 52-son; 2013-y., 1-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2008yil 15 iyul.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori – 2012 yil, 28 avgust.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
6. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident I.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 30.01.2010.
7. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident I.Karimovning

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 28.01.2010.

8. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. - Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 13.11.2010.

9. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 07.12.2010.

10. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakat qilish, halkimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish - asosiy vazifamizdir - Xalq so'zi, 2007 yil, 13 fevral. 31-son.

11. Karimov I.A. Erishgan yutuqlarni mustahkamlab yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim. //Xalq so'zi gazetasi, 2006 yil 11 fevral.

12. Karimov I.A. “Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan”. Ilmiy-ommabop risola. T.: “O'zbekiston” 2011-yil. 200 b.

13. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. -T.: O'zbekiston. 2012-y.

14. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish”. T.: O'zbekiston. 2013.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

15. Abdulkarimov B.A. va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Fan, 2005. 241 b.

16. Prezident I.A.Karimovning “2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. -T.: “O’qituvchi”. NMIU, 2012-y
17. Prezident I.A.Karimovning “Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” nomli ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. T.: O’qituvchi. 2013.
18. Qosimov F.M. “Menejment”. T.: O’zbekiston, 2002
19. Sobirjonova D., Sulaymonov B. “Menement asoslari” TMI. “Iqtisod-moliya” - 2008
20. Tojiboeva D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob). – T.: Sharq, 2003 - 79 b.
21. To’laganova Sh., Boymatova U. “Marketing” TMI.Iqtisod-moliya, 2007
22. Valdaytsev S.V. Antikrizisnoe upravlenie na osnove innovatsiy. Uchebnoe posobie/ -SPb: Izd-vo Sank-Peterburg. un-ta, 2001. -232 s.
23. Innovatsionniy menedjment: Spravochnoe posobie / Pod red. P.N. Zavlina, A.K. Kazantseva, L.E. Mindeli. –SPb., Nauka, 1997. –560s.
24. Innovatsionniy menedjment: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. S.D.Ilenkovoy. –M., Banki i birji, YuNITI, 1997. –327 s.
25. Maxkamova M.A.Gosudarstvennoe regulirovanie innovatsionnix protsessov v Uzbekistane. M.: VINITII., 2002.
26. Maxkamova M.A. Formirovanie potentsiala innovatsionnogo razvitiya v usloviyax perexodnogo perioda// J.Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana, №5-6, s.15-16.2002, Tashkent.
27. Muxiddinov X. O’zbekistonda telekommunikatsiyalar bozori rivojlanishining moliyaviy masalalari (AK “O’zbektelekom misolida”). Diss.i.f.n.- T.: 2006.
28. Najbiddinov S.U. Bozor iqtisodiyotiga utish davrida meva uzum ishlab chiqarish xamda kayta ishlashda xisob va nazoratni tashkil kilsh

(kishlok xujaligi vazirligiga karashli xujaliklar misolida). Diss.i.f.n.-
.T.;TMI, 1995.

29. Rayzberg B.A. Gosudarstvennoe upravlenie innovatsionnimi protsessami. Ekonomist. -M, 2008. - C. 35-38

30. Reyman A.D. Zakonomernosti funktsionirovaniya i regulirovaniya infokommunikatsiy.-M.: nauchnaya kniga, 2003.

31. Sheremet A.D., Daderkine E.N. Upravleniskiy analiz na predpriyatiyax svyazi: Uchebnoe posobie.-M.; ID FBK-Press, 2002,-144s.

32. Shibarshova L.I. Otrasleye i territorialnie strukturnie preobrazovaniya v sfere pochti i telekommunikatsiy. «Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana», 1999g., № 3.

33. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya.– M.,Progress,1982.–455 s.

34. Yureva T.V. Intellektualnaya sfera i predprinimatelstvo.–M., Ankin, 1994. – 51 s.

35. Набиев Р.А. Менеджмент. Учебное пособие.- М.: Финансы и статистика, 2009.- 368 с.

36. “Стратегический менеджмент” Под.ред А.Н.Петрова, СПб.: Питер, 2008, 272 с.

37. “Стратегический менеджмент” Учебное пособие/ Арутюнова Д.В. Таганрог: Изд-во ГТИ ЮФУ, 2010. – 122 с.

38. Rogers E.M. Diffusion of innovation. – NY: Free Press, 1962. - 367 p.

39. Brave New Uniwired World.The Digital Big Band and the Intinitive Internet /Lightmen Alex with Rojas William/-John Wiley & Sons Inc., New-York, 2002.-The Global Information Technology Report 2002-2003/ Oxford University Press, 2003.-335pp.

40. Innovation and Technological Change: an international comparison. – 1991. –210 p.

41. Drucker P.F. Entrepreneurship and innovation. – N.Y.: Harper a Row, 1985. IX, 277 p.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

42. Madrahimov U. Iqtisodiy o'sishga omillar samaradorligining ta'siri. "Bozor, pul va kredit"/07 (182), 2012-y.

43. Obod turmush yili: ezgu maqsad va muhim vazifalar. "Xalq so'zi" gazetasi. 2013-yil 21-fevral, 36-son.

44. Qalandarov R. "Birja Ekspert" jurnali. 2012-yil, № 6

45. Sulaymonov B. Restrukturizatsiyalash dasturlarini amalga oshirishda loyihalar boshqarishini takomillashtirish. "Moliya" ilmiy jurnali, 2/2012.

46. Douma S. Success and failure in new ventures // Long range planning. 1991. V.24. 2. P. 54-60.

47. Grossi G. Promoting innovation in a big business // Long range planning. 1990. V.23. 1. P.41 –52.

48. Хамидова Ф. Роль портфельного инвестирования в современной рыночной экономике. "Молия" илмий журнали, 5-6/2012.

49. «Sirg'ali dehqon bozori» OAJning yillik xisobotlari.

IV. Internet saytlari

www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)

www.undp.uz (BMTTD rasmiy sayti)

www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi portali)

www.ziyo.net (Axborot-ta'lim portali)

www.publicfinance.uz (O'zbekistonda budjet islohotlari loyihasi sayti)